

ADABIYOT XRESTOMATIYASI

Maxtunquli

G'AZALLAR

Turdi Farog'iy

G'AZALLAR

Zavqiy

G'AZALLAR

Uvaysiy

G'AZALLAR

Shavkat Rahmoh

SHE'RLAR

Shuhrat

BALLADA

Abdulla Avloniy

SHE'RLAR

22 jild

ADABIYOT

XRESTOMATIYASI

Turdi Farog'iy
G'AZALLAR

Uvaysiy
G'AZALLAR

Zavqiy
G'AZALLAR

Maxtumquli
G'AZALLAR

Abdulla Avloniy
SHE'RLAR

Shuhrat
BALLADA

Shavkat Rahmon
SHE'RLAR



22 jild

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018

UO'K 821.512.133

KBK 84 (5Y)

M 20

Farog'iy, Turdi

G'azallar. J: 22. /Turdi Farog'iy/ G'azallar /Uvaysiy / G'azallar /Zavqiy / G'azallar /Maxtumquli / G'azallar /Abdulla Avloniy / She'rlar /Shuhrat / Ballada /Shavkat Rahmon / She'rlar – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 180 b. – (Adabiyot xrestomatiyasi)

Xalqimiz o'zining hassos, otashqalb ijodkorlari bilan har qancha faxrlansa arziydi. Ushbu to'plamga o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan bir necha shoirlarning sara bitiklari jamlandi. Bu bitiklar o'quvchilar qalbiga yorug' hislar, faxrli tuyg'ular baxsh etishiga ishonamiz.

UO'K 821.512.133

KBK 84 (5Y)

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2018

ISBN 978-9943-5209-3-6



TURDI FAROG'iy



G‘AZALLAR

* * *

Tor ko‘ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli¹o‘zbek yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming² son bo‘lub bir jon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik³ qiling.

Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da‘vosin etmakni ko‘tahlik⁴ qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin⁵ ko‘tarib zaxmlar⁶,
Sizga yo‘q, ul javhar-u yuzga upo-englik⁷ qiling.

¹ B o v l i – boylam, dasta.

² Q i p c h o q, X i t o y, Y u z, N a y m a n, Q i r q, Y u z, M i n g
– o‘zbek urug‘lari nomlari.

³ O‘ n g u r, t i r i z, y a q o, y e n g – to‘nning qismlari.

⁴ K o‘ t a h – kalta, qisqa.

⁵ R a n g i n – alvon, qizil.

⁶ Z a x m – yara.

⁷ E n g l i k – elik, upa.



* * *

Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,
Fitnayi avbosh¹, zulm-u kufr-u tug'yondur bu mulk.

Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,
Mutlaqo kirdori² xayli kofiristondur bu mulk.

Durahd-u³ tangchashm-u⁴ besar-u⁵ ya'jujvash⁶.
Muxtalifmazhab⁷ guruhi O'zbekistondur bu mulk.

Naqdi jon bersang topilmas istasang bir zarra aysh,
Mehnat-u anduhni⁸ so'rsang, farovondur bu mulk.

Joyi islom-u musulmonlig', Farog'iy, istama,
Poytaxti kishvari Subhonqulixondur bu mulk⁹.

¹ A v b o s h – bebosh.

² K i r d o r – qilg'iliq ish.

³ D u r a h d – ahdiga amal qilmaydigan.

⁴ T a n g c h a s h m – ichi tor.

⁵ B e s a r – bebosh.

⁶ Y a ' j u j v a s h – ya'jujmisol g'avg'ochi.

⁷ M u x t a l i f m a z h a b – xilma-xil aqidaga mansub.

⁸ A n d u h – g'am.

⁹ M u l k – mamlakat.



* * *

Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro,
Dil mulkini bir go'shayi chashm ayladi yag'mo.

Tufrog'da jon bitsa, ravodur, ne ajab gul,
Cho'x sarvi sihi etdi nihon ko'zlari shahlo.

Har qanda g'ami do'st dilporani istar,
To subh, yaqo yirtmadi mehr o'lmadi paydo.

* * *

O'zbek o'g'li o'qusa tafsir ila mishkotni,
Ro'z savm-u shab qiyom afzun etib tootni.

Yetsa toroji havodis, jam o'lub avbosh der:
«Sahmgin solib suron ur, molin olg'il sortni».

Bir piyoda ko'rsa shatranji bisoti dahrda
Zulm-u javr aylar muhayyo, soz etib luchmotni.

Der: «Qachon o'z shavqim ila mu'takif masjiddaman,
Iltizom ettim bu ish nochor yo'qdin otni».



* * *

Kuyar til shammayi gar holatimdin aylasam taqir,
Giribon chok o'lur etsa qalam dardi dilim tahrir.

Shabi hijroniming poyoni tay o'lmaz, toyiri gardum
Mah-u xurshed o'lub ikki qanoti aylasa shabgir.

Tuluyi subhdin navmed, ming tunlar yaqo yirtib,
Savodi shomi g'amdin sori baxtim xomayi taqdir.

* * *

Musulmon bilma aslo hech mazhab yo'lida o'zbek,
Bularning kufri g'a bil-ittifoqi jumla yo'qdur shak.

Ne mazhab, qaysi din o'z mulkin o'zi xarob etgay?
Erurlar mufsidul-arz az azal bu firqayi badrak.

Atolur hoji kofir Makka borib haj qilib kelsa,
K-i hargiz o'zga bo'lmas haq yo'lin yurgan bila eshshak.

Ko'rub zohirda oni shayx-u so'fi e'tiqod etma,
Kirib masjidga chiqmak birla quymas go'ng yemakni
sak.



* * *

Boshima bir ko'hi g'am bir ot koh-u¹ yemidin,
Bir ko'ngul yuz pora yo'qluq za'fi vahm-u biymidin².

Qad bukub, bo'ynum egib, tegdi oyoqlarga boshim,
Ahli dunyo poybo'si³ xizmat-u ta'zimidin.

Dil – kabobim, qon – sharobim, ashki
hasrat – nuqli bazm,
Yetti qassomi azalning⁴ xizmati tan'imidin.



¹ K o h – somon.

² B i y m – qo'rquv.

³ P o y b o ' s – so'zma-so'z: oyoqdan bo'sa olish, m a j o z a n: xushomad, ta'zim ma'nolarida.

⁴ Q a s s o m i a z a l – taqdiri belgilovchi.



* * *

Qatrayam nochiz¹, ammo zoti qulzum² Turdiman,
Kelturan amvojg'a³ bahri⁴ talotum⁵ Turdiman.

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar⁶ etdilar mandin nufur⁷,
Ne balo, baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.

Rishtadek⁸ ming pech-u tob⁹ chashmi so'zondin¹⁰o'tar,
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.



¹ N o c h i z – arziyas.

² Q u l z u m – dengiz.

³ A m v o j – mavjlar, to'lqinlar.

⁴ B a h r – dengiz.

⁵ T a l o t u m – po'rtana.

⁶ A q r a b o – yaqinlar, qarindoshlar.

⁷ N u f u r – nafrat.

⁸ R i s h t a – ip.

⁹ P e c h - u t o b – buralgan, o'ralgan.

¹⁰ C h a s h m i s o ' z o n – ko'z ignasi.



OT VA IN'OMNING KECHIKISHI HAQIDA

Ayo miri valine'mayi kiromi ot in'omi,
Yuzini ko'rmaga hasratda bo'ldum eshitib nomi.

Ne yolg'uz ot edi ummid yuz in'om, ehsondin,
Ki nobuda xayoli shahdg'a shirin edib komi.

Ne gardiga yetishdim, ne boqib ko'rdim qarosini,
Samandi umrdin, bodi nafasdin tez ekan gomi.

Bila olmon bu duldul raxshi Rustam yo parizodi,
Ki odam o'g'liga rom o'lmagan, ne yerda oromi?

Sharofat adl-u ehson, bovujudi kasrati kufri,
Qolib No'shirvon Hotamning olamda nek-u nomi.

Hazora qal'asinda jami xos-u om arosida,
Zaboni purdurar boringdin eshitdim bu payg'omi.

O'shal tarixdin o'n oy o'tub yilga qadam qo'ydi.
Ki ne og'ozini bildim yaqin, ma'lum anjomi.

Meni(ng) ozoda boshimni giriftori tama qilding,
Mudomat bermas o'lsang nega berding va'dayi xomi?

Necha yeldim, yugurdum bo'lmadi xosiyati ma'lum,
Quruq ovozayi in'omi mahzu ot badnomi.



MUXAMMASLAR

* * *

Muxammasi turki dar viloyati Xo‘jandi Jubrandi va Suprandi noma dar asri Oqbo‘tabiyi shahid tahrir namud...

(Xo‘jand viloyatida, shahid Oqbo‘tabiy asrida bitilgan turkiy muxammas)

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko‘rdiman¹,
Rind sarxayli-yu² xush ayshi damodam surdiman,
Halqayi ushshoqda³ bazm-u majolis⁴ qurdiman,
Mushti xokam⁵ davr-u davronlar(ni lekin) ko‘rdiman,
Xush dimog‘ etgan mayi sofi hariflar⁶, durdiman⁷.

Qilmadim shukronaye, soldurdi tufrog‘ oshima,
Qolmadi juz dard-u g‘am hamdam, musohib⁸ qoshima,
Haq o‘zi rahm aylag‘ay ohi sahar, ko‘z yoshima,
Tafriqa toshini yog‘durdı zamona boshima,
Xonumon ovora, selobi havodis⁹ surdiman.

¹ K o ‘ r d i m a n – men ko‘rdim.

² R i n d s a r x a y l i – rindlar sardori.

³ H a l q a y i u s h s h o q – oshiqlar halqasi.

⁴ M a j o l i s – majlislar.

⁵ M u s h t i x o k a m – bir siqim tuproqman.

⁶ H a r i f – do‘st, ulfat.

⁷ D u r d – quyqa.

⁸ M u s o h i b – suhbatdosh.

⁹ H a v o d i s – hodisalar.

Nozili¹ hukmi qazo hech kim rad-u man etmadi,
Barcha bo‘yniga solan bu rishtani qat² etmadi.
Ahli hole topmadim, boshdin balo daf etmadi,
Kulfati g‘urbatni tuzluk sunnati raf etmadi³,
Xor-u beqadramki, inson otanib, Jubrandiman.

Voqife yo‘q, bu musofirlik‘da mandin ne o‘tar,
Baski yuz ko‘yi bila ro‘z kelib, ro‘zi⁴ ketar,
O‘zmag‘ay mundin baloye, bo‘limg‘ay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin charar,
Salb⁵ dillarda, nazarlarda karir⁶ suprundiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib, o‘zdin ketib, eldin qolib,
Harza⁷ tifi⁸ ashkdek⁹ ayni nazarlardin solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo‘lg‘a olib,
Dasta farsuda¹⁰, yuzi qaytib, ayag‘larda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘an kundiman¹¹.

Oh, bu umri kiromi¹² sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,
Bilmadim o‘z aybimi xalqqa mazammat¹³ ayladim,

¹ N o z i l – tushish.

² Q a t’ – kesish.

³ R a f – yuksak. R a f e t m a k – o‘rtadan ko‘tarish.

⁴ R o‘ z i – rizq, nasiba; ro‘z – kunduzi.

⁵ S a l b – rad etuvchi.

⁶ K a r i h – jirkanch.

⁷ H a r z a – behuda.

⁸ T i f l – bola.

⁹ A s h k – ko‘z yosh.

¹⁰ F a r s u d a – eskirgan; horigan.

¹¹ K u n d – o‘tmas.

¹² K i r o m i – aziz.

¹³ M a z a m m a t – tanbeh berish, uyaltirish.

Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,
Zaxmi neshi ro'zgor ahlini talx-u tundiman¹.

Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dar go'sh² edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo'sh edim,
Hoy-u ho'yi bazmlarda shahdi no'sho-no'sh³ edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh⁴ edim,
Bu zamon yavg'on qozon ostida qolg'on yundiman⁵.

Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pech-u tob⁶,
Har sori yeldim-yugurdim suvsanib mavji sarob,
Tashna lab, gardi kudurat⁷ zeri poyinda⁸ xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardan shikasta⁹ mo'ndiman.

Kasrati¹⁰ yo'qluq, tama kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig'lig yerga urdi obro'-yu izzatim,
G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim¹¹,
Aql zoyil¹², umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim,
Davlat urg'an pushti po, baxtibat chirkindiman.

¹ Talx-u tundi – achchiq.

² Dargosh – quloqda.

³ No'sho-no'sh – ichho-ich.

⁴ Sarposh – qopqoq.

⁵ Yundi – yuvindi.

⁶ Pech-u tob – siqilish, to'lg'anish.

⁷ Kudurat – g'am.

⁸ Zeripoy – oyoqosti.

⁹ Gardan shikasta – bo'yni egik.

¹⁰ Kasrat – mo'llik.

¹¹ Fitrat – tug'ma tabiat.

¹² Zoyil – so'nish.

Man kimam g‘umnom-u¹ nokom-u² jahon ovoraye,
Diyda namnok-u³ giribon chok-u⁴ bag‘ri poraye,
Noqabuli marham-u nosur⁵, bitmas yoraye,
Bekase, mushti xase, bir bandayi bechoraye,
Sobiram, rozi qazo, tiyri balog‘a⁶ ko‘ndiman.

Xeshman, darvish miskin, mustahiq⁷ devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqmidur qilmoq tama begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh⁸ etma bir mayxonadin,
Jo‘sh bir xum sof maysan, man g‘ubor-u durdiman.

Yuz farozidin⁹ ozib, tushdum nishebi¹⁰ qirqqa,
Xavf-u biym-u vahm arosinda qaribi¹¹ qirqqa,
Dona deb pobast¹² o‘lub, domi¹³ g‘aribi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo‘ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax¹⁴ muteyi payravi jurqundiman.

¹ G u m n o m – nom-nishonsiz.

² N o k o m – nochor, baxtsiz.

³ D i y d a n a m n o k – ko‘zi yoshli.

⁴ G i r i b o n c h o k – yoqasi vayron.

⁵ N o s u r – bitmaydigan yara.

⁶ T i y r i b a l o – baloning o‘qi.

⁷ M u s t a h i q – loyiq.

⁸ I k r o h – jirkanish.

⁹ F a r o z – balandlik.

¹⁰ N i s h e b – pastlik.

¹¹ Q a r i b – yaqin.

¹² P o b a s t – oyog‘i bog‘lanmoq.

¹³ D o m – tuzoq.

¹⁴ D i z z a x – Jizzax.



* * *

Davri umrimda balo bog‘lab, qazo payvasta saf,
Sobiram, rozi rusumi payravi ahli salaf,
Shokiram, koni dami yo‘qluq takalluf bartaraf,
Keldi iyd, obilayi g‘am jinsi hozir naqd kaf,
Kulbayi ehzonima so‘zi jigardin bo‘yi taf.

Ro‘zi avval dard-u g‘amdin xilqati ob-u gilim,
Pora-pora bag‘rim-u qondin yarotilg‘on dilim,
Rohi selobi havodisga maqomim, manzilim,
Hech yo‘q g‘ayri pushaymonliqdin o‘zga hosilim,
Umrni g‘aflatda etgan, moli g‘oratg‘a talaf.

Raxnayi devori tandin umr raxshin sakratib,
Tezravi bodi nafasdin gohi ko‘z yumdum o‘tub,
G‘arq o‘ldum domani behosili sohil bo‘lub,
Qatrayi naysoni selobi sirishkimdin yutub,
Ayladim quti ko‘ngul bahrinda monandi sadaf.

Ne oyoq, ne boshig‘a yetdim, saropo istadim,
Qoldim ikki yo‘lning o‘rtasida hamro istadim,
Bazm bir sargarm hoy-hoyi urdo istadim,
Halqayi doirayi ushshoqda jo istadim,
Aydilar: qaddingni chang et, po‘sti jismingni daf.

Resha-resha poy istidloldindur domanim,
Oh beta’sir faryod-u fig‘onim, shevanim,

Kasrati za'f etdi jismi notavon parvizanim,
Un-un o'ldi ustuxon, hech yerda yetishmas unim,
Tig'i ohimdin labi xohishgarim o'ldi asaf.

Oh bu hasrat asosi ko'hna koxi besukun,
Vodiyi dorul-g'ururu maskani makr-u fusun,
Hech bildingmu na eltdilar kelib sandin burun,
Qo'ymag'il omodayi tonglog'a, sarf etgil bukun,
Mol-u dunyodur nasibi voris-u yokim talaf.

* * *

Joyi osoyish emas hech kima bu qo'hna ravoq
Yog'dirur boshimiza sangi jafu, gardi firoy
Yo'qolib rasmi vafo bo'ldi hama bosh-u oyoq
Mulkdin adl-u karam ketdi kelib kiyn-u nifoq
Yaxshiliq qilma tama zulm ila to'ldi ofoq.

Fitnayi sho'r hama ruoyila maskun tutdi,
Xo'blar masnadini sifla bilan dun tutdi,
Tahbatah ko'nglumi bu fikr bila xun tutti,
Joyi shohbozlari qarg'a-yu quzg'un tutti,
Hamnishin o'lg'ali shunqor ila doim yapaloq.

Shoh hambazm o'lub hojasarolar bila yor,
Hukmi bir aks surub bo'ldi yomonlar sardor,
Xor o'lub olim-u, rind-u, fuzalo birla kibor,
Ko'ringiz yurtni ishi topti na yerlarga qaror,
Xon jilavini iki um valadga berib bo'ldi inoq.

Ixtiyorin barining qavlig‘a baydat olg‘ay,
Har biri aysh ila qonun tanaum cholg‘ay,
Mulkni niyku badi maslahatining qilg‘ay,
Odamizodalari qadrini qaydan bilg‘ay,
Bari nokas barisi xodimi idris to‘qmoq.

Fuqaro boshig‘a yetdi bu aqlsiz shumlar,
Hamdami shoh bo‘lub ahli tahakkum bumlar,
Qani bir er chiqib aylasa ma‘dum humlar,
Yurtni boshini chaynab yedi bu bedumlar,
Solsa bu ahmaq go‘sxo‘rlari bo‘yniga tuzoq.

Shohliq uldur oni hukm-u so‘zi bir kerak,
Adl bobimi qurub rost nishon tiyr kerak,
Rostrav, dini durust peshasi tadbir kerak,
Ne muhannas sifat-u suvrati tag‘yir kerak,
Suvrati mard-u xotundek yasatib qosh-u qaboq.

Na adolat bor ul shohda o‘lg‘ay lo‘li zoy,
Hamdami boyloq-u kengash begisi hojasaroy,
Mardlig‘ yo‘qtur angakim qarasang sar topoy,
Shohning xizmatin etib tuzadur sakkizi oy,
Toshkand mulkida olg‘or yotar och-u qashoq.

Qani bir xisravi odilki, anga dod etsam
So‘rsa ahvolni g‘am xirmanining bod etsam
Domi mehnatkadadin ko‘nglimi ozod etsam
Bu buzulg‘an dili vayronami obod etsam
Aylasam bo‘si adab shoha kuyub qaydi oyoq.

Ey yuzi qora, ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar beglar,

Bilingiz bu so‘zimi pandi sarosar, beqayd, VOY NOMIDAGI

Aylangiz payravi shar'i payambar, beglar,
Sizga darkor bu yurt, ey gala zanglar, beglar,
Bu qadim naql erur: el rabot-u to'ra qo'noq.

Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G'asb ila molin olib qo'ymadingizlar bitini,
Qamchilar dog'i solib bo'yniga, tilib betini,
Yordingiz zahrasini ichidin olib o'tini,
Bo'lmadi bu kam ra'iyat boshidin hech tayoq.

Yetmadim hech bira bu qofiya paymolig'din,
Dod, yuz dod g'ariblig', g'ami tanholig'din,
Ko'rmadim manfaate behuda savdolog'din,
Yo'q so'qqa boshimdin o'zga manga dunyolog'din,
Kosh, ul g'ari zanlar solsa quruq so'zga quloq.





UVAYSIY



G‘AZALLAR

* * *

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiyman.

Istadim¹ bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumub ko‘zni muddao Uvaysiyman,

Uz diling taalluqdin², band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: „Mosivo³ Uvaysiyman!“

Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar⁴,
Arz to samo⁵ uzra mojaro Uvaysiyman.

To ko‘rib xarobotin⁶ ta’na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido⁷ Uvaysiyman.

Faqr borgohiga⁸ qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiyman.

Vaysiy beriyozat⁹ deb sahl¹⁰ tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

¹ I s t a d i m – bu yerda: «izladim» ma’nosida.

² T a a l l u q – bog‘langanlik.

³ M o s i v o – hech vaqosiz, yo‘qsil.

⁴ K a v o k i b – yulduzlar.

⁵ A r z t o s a m o – yer, osmon.

⁶ X a r o b o t – bu yerda: so‘fiylar maskani.

⁷ I q t i d o – ergashish.

⁸ B o r g o h – dargoh.

⁹ B e r i y o z a t – maslaqatsiz qiynoqsiz, azobsiz.

¹⁰ S a h l – oson, yengil.



* * *

Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.

Musofirman, g'aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.

Tilimning zikri-yu, ko'nnglimning fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.

Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,
Kelib holim so'ribon ketsa, mehmonimni sog'indim.

Nasibin uzmadi tangri, ilojin topmag'ay kelsa,
Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim.

Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin,
Ko'z-u ko'nnglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig'lagayman ro'z-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim.



* * *

Maqsudi ko'ngul – la'li mayi nobinga¹ qulman,
Andin sochilar ul duri noyobinga qulman.

El sajda qilur masjid devorig'a har dam,
O'lguncha bosh olmon, qoshi mehrobinga qulman.

Bilmasligim ifshosin eshitmakligim uchun
Baxtim kabi ul kokuli qullobinga² qulman.

Rutbangki falak toqida, ey badri³ saodat,
Zotingga yetolmay, seni mohtobinga⁴ qulman.

Bul dahr aro tush kabi umrimni kechurdim,
Nechun ochilur bilmagan ul xobinga⁵ qulman.

Vaysiy bu Jahon amricha ish qildi tun-u kun,
To aydi jahon Vaysiyg'a: «Odobinga qulman!»



¹ M a y i n o b – tiniq may.

² K o k u l i q u l l o b – gajak soch, kokil.

³ B a d r – to'lin oy.

⁴ M o h t o b – oydin.

⁵ X o b – tush, uyqu.



* * *

Meni rasvo qilgan kimdirki, sen siyminbadan¹ nozik,
Solan boshimg² a savdo kimdur, ul gul pirahan² nozik.

Xayoli kirsa ko'glumga chiqar dunyo-yu din mehri,
Qilibdur oqibat, ey do'stlar, ham bevatan nozik.

Chu sabrim tirnog'ida har kuni yuz ko'hi g'am qozdim,
Mening oldimdadur Farhod – ojiz, Ko'hkan nozik.

Qading nozuk, qoshing nozuk, ko'zung nozuk, labing
nozik,
Tiling nozuk, so'zung nozuk, tishing durri Adan nozik.

Xatingdur³ sabza rayhoniya⁴, labingdur kavsar adomi,
Xading – bo'ston, yuzung – gul, misli gulzori chaman
nozik.

Boshingdin to oyog'ingg'a qarab tursam, baring nozik,
Xususan g'abg'abing ostida ul zeri zaqan nozik.

Iki nargis, iki ko'ngul, iki tan, ikki jon birla
Birin biriga vasl aylab, qiloli anjuman nozik.

Uvaysiy, o'z-o'zingcha so'zlama, tiygil zaboningni,
Mabodo kelmasun nozik diliga to garan nozik⁵.

¹ Siyminbadan – kumushbadan.

² Pirahan – ko'ylak.

³ Xat – qizlar labi ustidagi tuk.

⁴ Sabza rayhoniya – rayhon hidli sabza.

⁵ Bu yerdagi «garan» so'zi «garon», ya'ni «og'ir» ma'nosidadir.



* * *

Kelibman dargahingga, shohi xo‘bonim, qabul etkil,
Bag‘ir qonim bila bul chashmi giryonim qabul etkil.

Umid aylab talab olmoqqa kirdim rohi pokingga,
Yo‘lingda aylagan faryod-u afg‘onim qabul etkil.

Ko‘nguldin xorij o‘lmish vasl ummidi, ne aylaykim,
Muhabbat shavqi ichra dog‘i hijronim qabul etkil.

Tushubdur boshima savdoyi ishqing, ey shahanshohim,
Alam bozorida bul dardi pinhonim qabul etkil.

O‘tubdur gavhari noyobi umrim toki g‘aflatda,
Tazarru¹ zor ilan qilg‘on pushaymonim qabul etkil.

Tegibdur novakingdin² necha o‘q jismim aro pinhon,
Shahidi ishq o‘lmoqqa oqqan qonim qabul etkil.

Uvaysiy garchi noqobil, kelibdur ostoningg‘a,
Fig‘on-u ohi so‘zonini³, sultonim, qabul etkil.

¹ T a z a r r u – yolborish.

² N o v a k – o‘q. Yorning qarashiga ishora. Uning har bir kiprigi o‘qqa qiyos etiladi.

³ S o‘ z o n – kuygan, yongan.



* * *

Oh gulruxsora jonon, xordurman ishqida,
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.

Kechalar kirdim chaman, vaqti sahar zor etmadim,
Qumri-yu ham andalibi¹ zordurman ishqida.

Xotirim tay qilsa² nogah nargisi ul mast xob,
Kavkabi sayyoradek bedordurman ishqida.

Mo'rdek³ pomoldurmankim, salomat ahliga,
Dard ahliga bu dam sardordurman ishqida.

Aql-u, fahm-u, hush-u idrokim sazovor o'ldikim,
Mijmari⁴ bardosh ichinda nordurman⁵ ishqida.

Istasam marham ajab ermaski, sendin, ey tabib,
Dardsizlar zaxmidin bemordurman ishqida

Soqiyo, bergil alimga⁶ sog'arekim⁷, xosdin,
Sog'inib ul sof may, xummordurman ishqida.

¹ A n d a l i b – bulbul.

² T a y q i l m o q – o'tkazmoq.

³ M o ' r – chumoli.

⁴ M i j m a r – cho'g'don.

⁵ N o r – olov.

⁶ A l – qo'l.

⁷ S o g ' a r – qadah.

Gul yuzi o'xsharmu ul gul yuziga, ey bog'bon,
Och daring¹, ko'rmakligim dushvordurman ishqida.

Xotirim zulfiga band-u ixtiyorim husniga,
Din ila payvast ul zunnordurman² ishqida.

Qilma, ey zohid, ko'rub, ahvolima sen sarzanish³,
Noz-u istig'noli, so'z bardordurman⁴ ishqida.

Gar kishi bo'lsa xaridori Uvaysiy ichra bor –
Ul matoyi ramzg'a bozordurman ishqida.



¹ D a r – eshik.

² Z u n n o r – xristianlik belbog'i.

³ S a r z a n i s h – malomat.

⁴ B a r d o r – ko'tarish.



* * *

Chiqib ishq o'ti ko'ksim chokidin, boshimdin oshibdur,
Quruq shoxeki, go'yo o'z ichidin o't tutoshibdur.

Ko'zing jon labga yetkurdi, labing jon qo'shti jonimg'a,
Bu ikki do'stlar ul joni mahzunim taloshibdur.

Azal kunda asar etgandi sirri may qulog'img'a,
Bugun, vah, dil bulog'i jo'sh urmoqliqda toshibdur.

Visoling orzusi shiddati hijronni yiqmoqda,
Bu ikki pahlavon maydoni dil uzra kuroshibdur.

Uvaysiy, olma boshing zikr-u fikri yor yodidin,
Suluki ishq aro be yodi haq yo'ldin adoshibdur.





* * *

Ajab yo‘q, mahvashim, shab-ro‘z bo‘lsam justujo‘yinda¹,
Xayoli Qaysdin voqif gar o‘lsang Layli so‘yinda.

Dimog‘im kokulining nakxatidin² mast-u mustag‘raq³,
Ki, go‘yo yostanib ming nofayi⁴ har tora mo‘yinda⁵.

Qoshin vasfini tinmay matlaig‘a mumkin izlarman,
Ko‘zim, nosih-nasihatcha, xaloyiq gufti go‘yinda.

Falak davrinda yuz ilkingni ul maqsuddin, ey dil,
Xudo xalq aylamish bul vojgunni charx xo‘yinda.

Necha Farhod-u Majnun, necha Mansur-u Zulayhoni
Demang har yonda jamin, qasdi bir jonona qo‘yinda.

Qadinda sarv kasb etmish, ko‘zinda bog‘ aro bodom,
Ruhinda ul guli ra‘no, qizil gul oni bo‘yinda.

Yozar ul husn vasfin tiyra tabidin, sabab uldur:
Ko‘rub nuri ilohiy Vaysiy mahruksor ro‘yinda.

¹ J u s t u j o ‘ y – qidirish.

² N a k x a t – xushbo‘y hid.

³ M u s t a g ‘ r a q – g‘arq bo‘lish.

⁴ N o f a – mushk.

⁵ M o ‘ y – soch tolasi.



* * *

Ey gul, jigarim qoni uzoringg'a munosib,
Yuz porali ko'ksun dag'i xoringg'a munosib.

Sarf aylama har bexabara la'li qadising,
To qahr-u g'azab meni zoringg'a munosib.

Tun sog'arida sharbati bedorlig' ichsang,
Mastonalig' ul chashmi xumoringg'a munosib.

To qildi muattar xati rayhoni sahargoh,
Xushholligim husni bahoringg'a munosib.

Man' etma tarahhum etibon, yor, yo'lungdin,
Ashkim yo'l aro man'i g'uvoringg'a munosib.

Dil manzarini pok etibon muntazir o'ldum,
Bo'lg'oymu ekin tab'i gulzoringg'a munosib?

Rashk otashini, Vaysiy, bugun aylamukarrar,
Yuz sen kabi devona nigoringg'a munosib.



* * *

Bo'lmasaydi to parishonlig'da zebo kokiling,
Qilmag'aydim shona chog'ida tamosho kokiling.

Urmam erdim olib iqlimga ul mashshotni,
Qilmag'ay erdi meni olamga rasvo kokiling.

Yo xaridor o'lmasam erdim junun bozorida,
Solmag'aydi boshima yuz rangli savdo kokiling.

Husni ruxsoring to'ya ko'rgan edim qadri tuni,
Qilmasaydi yuzlaring ustida g'avg'o kokiling.

Qolmag'aydim norasolar ta'nayi pinhonig'a,
Etmasaydi sirrimi elga huvaydo kokiling.

Qo'nmasaydi moh ruxsoringg'a ko'nglumni qushi,
Tushmagaydi tori to bo'ynumga yaldo kokiling.

Osmasayding jon olur vaqtingda zulfing dor etib,
Bo'lmag'aydi muncha Vaysiyga majallo kokiling.



* * *

Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi,
Vujudin shami so'zon aylamakni mendin o'rgandi.

Borib sahroga, qon bag'rimdin izhor ayladim bir kun,
Falak bag'rin qizil qon aylamakni mendin o'rgandi.

Shafaq xun bo'lg'usi, dil yor mehri gar nihon bo'lsa,
Samo gulguni domon aylamakni mendin o'rgandi.

Ko'rub abro' hiloling, jon fido qildim jamolingga,
Ul oy husniga qurbon aylamakni mendin o'rgandi.

Fig'onkim, g'am tarog'i xasta ko'nglum resh-resh etti,
Sanam zulfin parishon aylamakni mendin o'rgandi.

Seni izlarman andoqkim, quyosh diydorin izlarda,
Kezib tun-kun, shitobon aylamakni mendin o'rgandi.

Qanoat qildi Vaysiy, topti dildin gavhari nazmin,
Sadaf ham durri g'alton aylamakni mendin o'rgandi.



* * *

Bir pari paykar sumanbar yora oshiq bo‘lmisham,
La’li dilkash, so‘zi xush dildora oshiq bo‘lmisham.

Maddi ohim ko‘kdadur, sorig‘ yuzumda ashki ol,
Ul qadi ra’no, yuzi gulnora oshiq bo‘lmisham.

Qilma gulqanding ila za’fim ilojin, ey hakim,
Menki, gulbargi shakar guftora oshiq bo‘lmisham.

Nola-yu afg‘on ertarman qumridek bulbul kibi,
Na uchunkim, sarvi gul ruxsora oshiq bo‘lmisham

Lablaringdin to ko‘rinmish xush-xush inju tishlaring,
La’li birla ul duri shahvora oshiq bo‘lmisham.

Do‘stlar, ko‘nglum olan zulfi musulmonkush erur,
Kofiridur, kokili zunnora oshiq bo‘lmisham.

O‘zni qutqarmoq uchun yeldim-yugurdim har sari,
Ohu vovayloki, bora-bora oshiq bo‘lmisham.

Manzil-u ko‘y-u, xaloyiq bandidin ozodman
To tariqi hojayi Ahrora oshiq bo‘lmisham.

Baski, sargardon, quyun yanglig‘ yugurmakdur ishim,
Ishq vodisiga man ovora oshiq bo‘lmisham.

Vaysiydin xush istamaklik yo‘q munosib ne uchun?
Bir pari paykar sumanbar yora oshiq bo‘lmisham.



* * *

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tah mardumi nofahmdin ko'ngul dog' o'ldi, dog'
o'ldi.

Bu gulzori fano ichra mahalli be xalal yo'qtur,
Hamisha xoradin zaxmu, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Fano mardudlarini sirridin hech kimsa yo'q ogah,
Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Ko'ngul qoni bu rohi diydadin bir lahza band o'lmaz,
Vujudim iztirob aylab, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

To'lubdur bag'rim ichra jon misoli g'uncha naylarmen,
Ochilmay gul sifat ushbu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

So'zimdin xotiring uzra gumoni o'zga yetkurma,
Ki izhor aylamay naylay, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Meni rasvoyi olamdin mabodo ihtiroz etna,
Takallum birla shod ayla, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Ko'ngulni otashin bejo qilibdur nutqi guftori,
Qay-u bog' andalibidin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Bu so'zni ayladi barpo ajab gustohliq birla,
Maloli xotir o'lg'oymu, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Ajab ash'ori mavzun bog'ladi Vaysiy hasaddin kim,
Umarxon zufununikim, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

* * *

Eyki, xurshidi jamolingdin munavvardur menga,
Sensizin ermas ziyosi mehri anvardur menga.

Istamon ul nofayi totorning badbo'yini,
Shona urg'on zulfungdin muattardur menga.

Orzuyi sayri bog' o'lsam, ki men navmed o'lay,
Gul yuzung, rayhon xating, qadding sanubardur menga.

Hech qilmassen meni darding'a darmon, ey tabib,
Vahki, kun-kundin ziyoda dard badtardur menga.

Chehrayi zardimdin izhor o'lsa rashk, o'lmang malol
Har necha so'z zohir etsang, bilki bovardur menga.

Qoshimi xam etmay ichtim kim, zahar ag'yordin,
Na uchun no'sh aylaram ul la'l shakkardur menga.

Aylanur bo'lsam meni Vaysiyga tong yo'q, ne ajab,
To g'animatdur biling ul charx dilbardur menga.



* * *

Vasl o'lsa jahon xo'bi firog'ing sog'inurmen,
Gar anjumane ichra so'rog'ing sog'inurmen.

Jamshidni jomi menga gar bo'lsa muyassar,
Ko'ying itidurmenki yalog'ing sog'inurmen.

Payk etti ko'ngul ushbu zabonimni, nigoro,
Sir mujdasidin derga qulog'ing sog'inurmen.

Dil manzarini pob qilur erdi nigohing,
Ne tong, ne ajab desa qarog'ing sog'inurmen.

Hijron tuni hamroh xayolingni yeturdim,
To topqucha kim vasl charog'ing sog'inurmen.

Ko'yingga muqarrab qil-u yo olki jonimni,
Qonlig' yuragim derki pichog'ing sog'inurmen.

Ishq dardi fuzunroqmu va yo hajr davomi,
Ey o't, chidamay dudg'a dog'ing sog'inurmen.

Ey soqiyi behush, netay o'zga qadahni,
La'li mayidin quyg'on ayog'ing sog'inurmen.

Ag'yor eliding xotiri jam o'lmas, Uvaysiy,
Jam etgali zulfungni tarog'ing sog'inurmen.



MUXAMMASLAR

* * *

Shifosi yo'qsa vasling, hajri bemoringg'a sallamno,
Kam o'lsa iltifoting qahr-u ozoringg'a sallamno,
Na bulbul nolasi darkor gulzoringg'a sallamno,
Yuz oncha zaxmlig' ko'ksun tuman xoringg'a sallamno,
Vafo umidi yo'q, lekinki har koringg'a sallamno.

Oqardi ko'zlarim, jonon, yo'lingga toki telmurdim,
Muhabbat sog'ari ilkimda adnog' boda to'ldurdim,
Bu noqobil tilimni hajr maktubida ko'ndurdim,
G'aming pinhon edi savdoyi ishqing boshg'a kelturdim,
Xaridori muhabbatlig'da ozoringg'a sallamno.

Masof o'lmas, nigoro, senga mehr-u moh toboni,
Muyassar bo'lsa qadding qilg'usi shamshod armoni,
Tabassum aylasang sing'ay ko'rib gavharni dandoni,
Azaldin ul Xudoyim qildi ruhimni sipandoni,
Hazar ko'zdin qilurda ruxsoringg'a sallamno.

Nadin, ey sho'x, ul kun bo'yla dardimni ziyod eding,
Qay-u mug'bachchadek dayr ichra ag'yorimni yod etding,
Uzotib yaddi poking bir qadah may birla shod etding,
Xatab jonimni rashk o'tig'a jismimni ramod etding,
Maoding jonda bo'lsa, shami diydoringg'a sallamno.

Ko'rub bul fe'l af'olingni jononlar tahayyurdur,
Eshitib nola-yu zoringni afg'onlar tahayyurdur,

Karam baxshishlig'ingg'a jami sultonlar tahayyurdur,
Adoshib so'zni dersan tifi nodonlar tahayyurdur,
Deguncha bir so'zi yuz oncha takroringg'a sallamno.

Saridin to surayyo nolishim nolishg'a olg'ondir,
Kuyib go'r-u biyobon arsh uza g'ulg'ula solg'ondur,
Bu jallod ko'zlaring abr u qilich bo'ynimg'a solg'ondur,
Raqiblar dardina doru uchun qonimni olg'ondur,
Uvaysiy xanjaridur tiyri dandonimg'a sallamno.





* * *

Do'st kulbama qo'ydi maqdam, shod-xandonman bukun,
Gardi poyi toj barsar balki sultonman bukun,
G'am, nari tur, shodlig' taxtida mehmonman bukun,
Haddin afzundurki javridin parishonman bukun,
Charx kajraftor zulmi birla hayronman bukun.

Ko'nglum erdi hajri furqat zaxmi birla yoralig'
Ayladi anduhi motam yona pora-poralig',
Qay biriga yig'laram, bir yonda baxti qoralig',
Senga yuz ko'rguzdi olam ichra yuz ovvoralig',
Dasht-u sahroda quyundek usru sarsonman bukun.

Majnuni behush boshi uzra xoshokin degil,
Ko'hkan Farhodni farqi sari choking degil,
Nechalar ahli zamondin ko'zda namokin degil,
Aql-u hushim dahr xayli biymidin sokin degil,
Ayb qilmang, ey fatonat ahli, nodonman bukun.

Asradim jonda shakar guftor hajrin qon yutub,
Saqladim diydamda xush raftor hajrin qon yutub,
Bog'ladim nolamga gul ruxsor hajrin qon yutub,
Ayladim muzmar ko'ngulda yor hajrin qon yutub,
G'unchadek jaybi tafakkur ichra pinhonman bukun.

Istasang ko'nglum qushin koshonayi gulxan aro,
So'rsang aqlim govharin vayronayi mahzan aro,

Sham jonimdur meni bilsang chu maxfil tan aro,
Ohi-afg'onim degil bulbul kabi gulshan aro,
Bir sihi qad sarvining ishqida nolonman bukun.

Dilraboyi, navniholi, sarvqomat, rustaxez,
Senga, xo'boni jahon, ba'zi qul-u ba'zi kaniz,
Mahvashi to'ti takallum, dilbari jondin laziz,
Na sababdin so'rmading holi dilimni, ey aziz,
Bastayi zanjiri zulfi chashmi giryonman bukun.

Tog' homun sohibi Farhod, Majnun, do'stlar,
Majnun-u Farhod, Shirin tog' homun, do'stlar,
Qunduzim – tun, ko'kragim – xun, qomatim – nun,
do'stlar,
Dahr dun kimdu yon iqboli vojun, do'stlar,
Mehnati g'am birla chun dasti gribonman bukun.

Vaysiy chun zanbur garchi fahmi misli bolkim,
Jazb bozorini savdosi aro hammolkim,
Yig'ladi holini ko'rgachdin anga rammolkim,
Yor hajri zarrani aylab bisoti mol kim,
Furqat o'ti tobidin chun mo'yi bejonman bukun.



NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Men xasta-yu zoringni biror aylamading yod,
Sulton sen-u, hokim sen-u, bas men kima dey dod,
Umrinni kamolini g'aming ayladi barbod,
Ey orazi – nasrin, sochi – sunbul, qadi – shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nola-yu faryod.

Dil kulmasa ilkimda sharobim to'kulurmu,
Afsus mengakim to'kulan kosa to'lurmu,
Sayyod eli qayd aylamay ozod bo'lurmu,
Sayd o'ldi ko'ngul ko'zlariga, vah, qutulurmu,
Bir qushki, aning qasdida bo'lg'ay iki sayyod?

El bilmadi men majnuni mumtoz ramuzin,
Ko'rsa kishi vahm etkusi darboz ramuzin,
Sarf aylamading men bila damsoz ramuzin,
Ul maktab arokim o'qudung noz ramuzin,
Go'yoki vafo ilmin unutmish edi ustod.

Muhtoj erurmen tun-u kun ahli safog'a,
Shoyad yadi poking ko'tarur bo'lsa duog'a,
Rahm etmadi men bulbuli sho'rida navog'a,
Ashkimni ko'rub tez bo'lur ko'ngli jafog'a,
Ori, o't emas chunki subo' lmasa fo'lod.

Topdi bu ko'ngul zarraye Layli xabaridin,
Qon bo'ldi yurokim mani Majnun hunaridin,

Farhod qutuldi o'lubon dardi saridin,
Mingdin bir emas ul yurokim zaxmlaridin,
Har nechaki tog' bag'rini zaxm ayladi Farhod.

Zaxmim meni izhor emasdur badan ichra,
Izhor agar o'lsa erur pirahan ichra,
Bulbul na fig'on aylamasunkim tikan ichra,
Gul yafrog'i tirnog'lar erur bu chaman ichra
Bulbul par-u bolini yulub, bergali barbod.

Kim jur'ayi may ichmasa, mastonalig' etsa,
Bir chug'zdek obod aro vayronalig' etsa,
Vays egri qo'yib bo'rkini mardonalig' etsa,
Ne ayb, Navoiy kibi devonalig' etsa,
Har odamekim, bo'lsa aning yori parizod.





MUSADDAS

May berib mast qil, ey mug'bacha, sulton o'lay,
Bu gadolig' unutay, man Jamshidi davron o'lay,
Rahm qil holima makrubayi jonon o'lay,
Yo tirik dafn qiling, xalqqa pinhon o'lay,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.

To bukun jonima jonona sitam bilgurdi,
Furqatidin dili mahzunima g'am bilgurdi,
Jismi uryonimi zaxmig'a alam bilgurdi,
Bu g'arib holimakim, ta'n Ajam bilgurdi,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.

Yo Rab, ul yor sitamgarga giriftor etting,
Muncha berahm, jafajo'yi dilozor etting,
Kufr etib, zulfini tob bo'ynima zunnor etting,
Misli parvonadek har tunda sazovor etting,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.

Sangdil, berma zarar dilga xayoling chog'i,
Hajrdin berma xabar toki visoling chog'i,
Talx kom etma bukun obi ziloling chog'i,
Ayshima berma xazon qaddi niholing chog'i,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.

Yo Rab, o'z holi parishonima tokay yig'lay,
To'kub olding'a bag'ir qonima tokay yig'lay,
Tinmayin tundagi afg'onima tokay yig'lay,
So'rmag'on holimi sultonima tokay yig'lay,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.

Soqiyo, tashnayi xummorini bilgan yaxshi,
Davr ayog'i bila ahvolini so'rgan yaxshi,
Sak o'lub Vaysiy, bu mayxonada turgan yaxshi,
Bermasa tashnayi dargohida o'lgan yaxshi,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutg'il, bukun oson o'lay.





TARJI'BAND

Qil amon, yo Rab, aduvlar¹ mojarosidin meni,
Saqlag'il osiy² bu mardumning izosidin meni,
Ser ayla³ lutfi sultonlar atosidin meni,
Qil judo bul baxt-u tolelar qarosidin meni,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg'on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Koshg'ar yurti buzuldi – keldi, berdim xonumon.
Bosh suqarg'a joy topolmay yurgan erkan bemakon,
Yaxshilik qildim, uyimga, etmadim dod-u fig'on,
Chiqmayin joyi imomdin, ayladi bag'rimni qon.
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg'on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Ul mudarris sotti deb, soldi bu ko'nglumga g'ubor,
Oxiri bo'ldi alar kori qoshingda oshkor,
Rahm etib, arzinga etting sen, deding: «Ey Tunqator,
Yo'q zamonimda mening zo'rliq!» – deding, ey shahriyor,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg'on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni,

¹ A d u v – dushman.

² O s i y – gunohkor.

³ S e r a y l a – to'ydir.

Qozilar oldida berdim o'n iki tillosini,
Yona besh tilloni berdim, men puli foydosini,
Rozi qildi qozilar, man ayladi, ig'vosini,
Yona chiqmas joyidin, yalg'on qilur da'vosini,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg'on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni...





CHISTONLAR

Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh¹ qizlar manzil aylabdur, makon?
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig‘liq, turarlar bag‘ri qon!

(Anor)

Ul nadurkim, sabzto‘nlik, yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.

Barcha qushlarning so‘ngoki² ichida,
Ul na qushdurkim, so‘ngoki toshida.

(Yong‘oq)

Ikki mahbubni ko‘rdum, bir-birisin ko‘rmagan,
Ikkisining o‘rtasiga, do‘stlar, qil sig‘magan.

(Kun va tun)

Ul nadurkim, ikki daryoyi ajab xunxordur,
El halokin qasdig‘a mavj urmishin ko‘rdim bukun.
Ul na qushdirkim uyosida bolalar tashqari,
Don berur vaqtidagi tolpinmishin ko‘rdum bukun.

(ko‘z)

Ul nadurkim, poyi yo‘q, yursa boshi birla yurar,
Yurganida xok surmay, oncha ustolik qilar.

(suv)

¹ Gulgunpo‘sh – qizil (gulgun) kiyingan.

² So‘ngok – suyak.



ZAVQIY



G'AZALLAR

* * *

Yor kelur zamona yo'q, kelmasa-kelmasun netay,
Sarf etarg'a xazona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Maskani ko'z ichra desam, mardum aro kalon ekan,
Taklif etarg'a xona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Eski buzuq xarobada chug'zdek ayladim vatan,
Bir tuzuk oshyona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Man etarga kelmagin, ko'p emish istixoralar,
Mundin o'tar bahona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Ta'n zanonlar o'qlari ko'ksimizni hadaf qilur,
Kelmagidin nishona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Jur'ayi jomi vaslidin bermasa-bermasun menga,
Bazmi mayi mug'ona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Kunduzi partav afkanim bo'lmasa shami anjuman,
Va'dasi bir shabona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Jon-u ko'ngulni(ng) torini soz chekarg'a shunchakim,
Mutribi xush tarona yo'q, kelmasa-kelmasun netay?

Ko'zni tikib qudumiga tokay o'lurman intizor,
Ilmasa ko'zga kulbani, kelmasa-kelmasun netay?

Ishq elini(ng) dodiga solmasa yurt-u el quloq,
Odili bir zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay?

Ul ko‘zi vahshimiz bu yon bo‘lmasa rom ne ajab,
Zavqiyda dom-u dona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay?

* * *

Jahonda kam suxan kim bo‘ldi, asrori nihon bo‘ldi,
Kimiki so‘zladi ko‘p, bilki rasvoyi jahon bo‘ldi.

Nazokat ortturay desang, misoli g‘uncha xomush bo‘l,
Nadinkim og‘zini to ochdi gul, bargi xazon bo‘ldi.

Chamanda arg‘uvondek surat aro bo‘lmag‘in xo‘b yo‘q,
Pisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo‘ldi.

Dema mashhur bo‘lmoq yaxshi, bug‘doy donasi pinhon,
Daraxti¹ qildi javlon, sarg‘ayib oxir samon bo‘ldi.

Birodar, ol meni(ng) pandimni, o‘z qadringni sindirma,
Kishi o‘z izzatini bilmadi, oxir yomon bo‘ldi.

Agar izzat talabsan kamnamolig‘ orzusini qil,
Qayu ajnos bisyor o‘lsa sudi yo‘q, ziyon bo‘ldi.

Sadaflar ko‘p og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur xoli,
Ki ba‘zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi.

E Zavqiy xasta, og‘zing kam ochib, ibrat ko‘zing ochg‘il,
Ajabkim, qo‘l yaqoda yurgudek turfa zamon bo‘ldi.

¹ D a r a x t i – bu yerda bug‘doy poyasi ma‘nosida ishlatilgan.



* * *

G'addor falak sitam nishona
Kajdor, mariz, ey zamona!

Yaxshi hama dahr aro nigunsor,
Har yerda rivojdur yomona.

Hech kambag'al o'lmagay qarindosh,
Boylarni birov demas begona.

Pul bo'lsa kifoya, mayli dushman,
Bepul qaramaydi do'st jona.

Zog'-u zag'ani yuribdi ozod,
Bulbulga qafas berur zamona.

Inson sharafila qadrsizdur,
Hayvon jasadila mardumona...

Sardorlar o'ldi bexiradlar
Aql ahli yuragi to'ldi qona.

Ey tez zamon-u mardum ozor,
Qil fikr, ne ish erur chayona?

El ta'nida shikvayi zamondin
Zavqiy ishing o'ldi bu fasona.



MUXAMMASLAR

* * *

Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa ajab ermas,
Munavvar zimnida bir oftob o'lsa ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o'lsa ajab ermas,
Ko'rinsa surat-u asli niqob o'lsa ajab ermas,
Ochilsa pardalar yuzdin hijob o'lsa ajab ermas.

Nasimi jonfizo bemor tanga, ey sabo yetkur,
Xazon pajmurda bo'lganlarga san ob-u havo yetkur,
Ko'yinda biz bilan begonani bir oshno yetkur,
Gadomiz boshlar uzra soyalar solsun Humo yetkur,
Muqarrardur zamona inqilob o'lsa ajab ermas.

Shiori shar birlan ziynat afzo o'lsa Farg'ona,
Tong ermasdurki shahri jannat aso o'lsa Farg'ona,
Havosi ruhparvar ham diloro o'lsa Farg'ona,
Jahon ahliga go'yo dafi savdo o'lsa Farg'ona,
Bo'lib tuprog'i anbar, suv gulob o'lsa ajab ermas.

O'tib bir qarn, aqronim, jahon obod ko'rgaysiz,
Jahon ahlini zolim haddidin ozod ko'rgaysiz,
Giriftori alam ermas, hamani shod ko'rgaysiz,
Burungi o'tgan-u ketgan ko'ngulda yod ko'rgaysiz,
Qarigan chog'da Zavqiy bir shabob o'lsa ajab ermas.



* * *

Yuzingni ko'rsatib avval o'zungga bandalar qilding,
Yana ko'nglum olib yuz noz birla xandalar qilding,
Jamoling partavin solib, ajoyib jilvalar qilding,
Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding
«Senga men to qiyomat oshno», deb va'dalar qilding.

Qani menga vafoyi ahd qilg'oning, guli g'uncha?
Qani bulbul sifat oldingda turgonim ochilg'uncha?
Qani bizlarg'a hamsuhbat raqiblardek tong otquncha?
Sani dardi firoqing aytib-aytib yig'lay o'lguncha,
Na deb, ey mehri yo'q, men xasta qulg'a g'amzalar
qilding.

Deb erding: kecha-kunduz men seni yoring bo'lurman
deb,
Tikandek suhbatingda bir guli noring bo'lurman deb,
Jafoni senga oz aylab, vafodoring bo'lurman deb,
Umidim ko'p edi, yolg'iz xaridoring bo'lurman deb,
Ajabkim, xalq ichinda bulhavas deb shikvalar qilding.

Manga mardumlar aydi: «Berma ko'ngul bevafo yora,
Seni ovora aylar, ahdi yolg'ondur, sitamkora,
Vafosi yo'q, ishonma so'ziga, sho'xi jafokora»,
Dedimkim, nosiho, in'om ko'pdur oshiqi zora,
Netay, ey bemuruvvat, oxiri sharmandalar qilding.

Tariqi oshnoliqni buzub nomehribon bo'lding,
Meni jononim erding, emdi kimga jonajon bo'lding,
Necha kun menga ulfatlik qilib oromijon bo'lding,
Ko'zimni mardumida necha soat mehmon bo'lding,
Qalandardek tanimg'a g'am haririn jandalar qilding.

Kima aytib, kima yig'lay bu zolim yor jafosini,
Haqiqat qilmasa ma'shuq degan oshiq xatosini,
Hamisha furqatin tortsam, raqib ko'rsa vafosini,
Qayu Laylisifat mundog' qilur Majnun gadosini,
Yuzingni bir ko'ray desam qo'lingni pardalar qilding.

Agar bilsam edi begona bo'lmoq ixtiyoringni,
Boshimg'a solmas erdim behuda savdoyi koringni,
Hama aytur nechuk qilding, o'shal mastona yoringni,
Ko'ngulda ginasi bor, arz qil ahvoli zoringni,
Solib bo'ynumga hajring zanjirin badkardalar qilding.

Yuragim raxna bo'ldi, bas qil istig'noni, jononim,
Firoqing torta-torta yoshligimda ketti darmonim,
Arazingni qo'yib, lutf aylasang hech yo'qtur armonim,
Ko'zim nuri, tanimning quvvatisan, ey diloromim,
Na xo'b bir necha kun Zavqiy qulingga shevalar qilding.



* * *

Dildagi rozimni, ey bodi sabo, men kimga dey,
Sen ko'ngul sirriga mahram oshno, men kimga dey,
Chekkanimni zulm-u, bedod-u, jafo, men kimga dey,
Hasratim ko'p, bir parig'a muftalo men kimga dey,
Ishqida kuygan yurak bag'rim ado, men kimga dey?

Qayda zikri shahd etay, shirin maqolimni demay,
Gulni(ng) vasfi yo'q kerak, ruxsori olimni demay
Sarvlar fikri kerakmas navniholimni demay,
Husn mulkin shohi bo'lsa arziholimni demay,
Termilib yo'lidagi yotgan gado, men kimga dey?

Andalibi bog' o'lub ilhon¹ chekardin tinmadim,
Goh-gohi nolayi pinhon chekardin tinmadim,
Savti gulbongi sado nolon chekardin tinmadim,
Gul yuzingni shavqida afg'on chekardin tinmadim,
Bu chamanda bulbuli dastonsaro, men, kimga dey?

Qo'rqmagan kimdurki oshiqhlarni ohi sardidin,
Besutun tog'idagi Farhodi g'am parvardidin,
Bu junun sahrosida Majnuni olam gardidin,
Aql nosih, ishq bebok – ikkisini(ng) dardidin,
Ayta olmay hech kima bu mojaro, men kimga dey?

¹ I l h o n – yoqimli ovozlar, xonishlar.

Soqiyo, sadqang bo'lay, bir no'sh tutg'il Zavqiyg'a,
Yo'q, g'alat derman sharobi xush tutg'il Zavqiyg'a,
Rindlar ichra mayi madhush tutg'il Zavqiyg'a,
Garchi ikrohi¹ tabiat go'sh tutg'il Zavqiyg'a.
Senga demay arzi-holim, dilrabo, men kinga dey.



¹I k r o h – jirkanish, xunuk hisoblash.



* * *

Zolim falak bisotida ozor muncha ko'p,
Inson sharafli nomi bila xor muncha ko'p,
Har ko'chalarda qashshoq ila zor muncha ko'p,
Tarhi jahon binosida badkor muncha ko'p,
Xo'qand aro baloga giriftor muncha ko'p.

Hamroz-u do'st topilsa-yu jonlar fidosidur,
Orzu shukim: kamina ko'ngil muddaosidur,
Xush suhbati majruh dilim davosidur,
Maqdami ko'zuma ayni shifo xoki posidur,
Yo'q andog' anisim, dunyoda ag'yor muncha ko'p.

Nodon sevar zamona, dod ilkidin netay,
Boshim olib fig'on ila yo bir tomon ketay,
Ushbu diyori masxarani emdi tark etay,
Tinmay shikoyat ila yomonga raqam bitay,
Jumla falokat ahlig'a g'amxor muncha ko'p.

Dorilamon bo'ldi ajab fohishaxonalar,
To'lmasmi kasofatdin oxiri paymonalar,
Dono ko'rub bu kulfat o'tida yonalar,
Qolsin fisq-u fujuri boshidin ordonalar,
Qarg'ishga nishon benomus-u beor muncha ko'p.

Ilm-u hunarlar o'rnig'a puldor to'ng bo'yin,
Uch-to'rti yig'ilib qilishur it kabi o'yin,
Ehson g'aribg'a yo'q, shohona qilur to'yin,

Aytsa ado bo'lmas, sira minba'd fe'l-u xo'yin,
G'ussa dilim sharh aylasam asror muncha ko'p.
Qishloq eli shaftoli qoqi, non topolmagay,
Kiygan libosini tortsa (belin) yopolmagay,
O'ldi sovuqda ko'pi och, o'tun yoqolmagay,
Ko'rdiki bu mashaqqati hargiz yo'qolmagay,
Qish chillasida yozga umidvor muncha ko'p.

Kim tashna er uchun, kimida ikki-uch haram,
Birovi bevatan-u, birovda bog'i eram,
Birovni(ng) so'zi zulfiqor, birovni(ng) qaddi xam
G'addor falak, doim ishing bo'ldi besh-u kam,
Kajdor zamona, dog'uli makkor muncha ko'p!

Birov siym-u zar ila o'limdin omon bo'lur
Yetib murodg'a biri hakimi zamon bo'lur,
Aqcha uchun kishi rohzan yomon bo'lur,
Bechora kosib ahlig'a, bilgil, ziyon bo'lur,
Nohaq qon to'karga bosmachi xunxor muncha ko'p.

Derlar birov ulug'-u birini(ng) past taqdiri
Biri to'q-u biri och, balolarni(ng) sobiri,
Inson sharafli nomida emasmi har biri?
Yoxud ona tuqqanida bo'lganmi bir siri,
Yolg'on e'tiqod ila bid'at shior muncha ko'p.

Zavqiy, kim aydi, muncha shikoyati daroz qil,
So'zni muxtasar aylab, iboratni oz qil
Kim zimiston ko'ngillarni bahor-u yoz qil,
Qad rost turub, so'z bila elni sarafroz qil,
Aytmay desang, munosibi ash'or muncha ko'p.



MURABBA

SHOHIMARDON XOTIRASI

Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan,
Umrida bir ko'rgan kishi,
O'lganda bearmon ekan,

Ikki tarafdin soy deng,
Ko'm-ko'k musaffo choy deng,
Har dam ichib hoy-hoy deng,
Obihayoti jon ekan.

Osmonga qo'ygan nardbon,
Chiqsang tamosho bir jahon,
Nahri ulug', har so'y ravon,
Ko'rmakka ko'z hayron ekan.

Keldik yetib mohi rajab,
Har kim ko'rar aylar ajab,
Na pors ko'rgan, na arab,
Bir jannati rizvon ekan.

Boloda tang-tang ko'chalar,
Turgayki, shayx-u xo'jalar,
Kelsa tovuq ham jo'jalar,
Yozmoqda dasturxon ekan.

Badshakl-u badxo‘, badnamo,
Botinda kiyna, fisq, riyo,
Kim uchrasa shilqim gado,
Sulloh ozori jon ekan.

Sahni ajoyib xushhavo,
Ham ruhparvar, jonfizo,
Xushbo‘y ko‘ringan har giyoh,
Jambil bilan rayhon ekan.

Kabiklari bo‘ynin cho‘zib,
Yuz savt ila nag‘ma tuzib,
Bulbul navolar ko‘rguzib,
To‘tisi xushilhon ekan.

Bo‘lsa kerak bul tog‘lar,
Kam-kam chiroyli bog‘lar,
Hech kimsa ko‘rmas dog‘lar,
Ko‘ngli aro qolgon ekan.

Zavqiy kelib ko‘p turmadi,
Tursa rafiqlar qo‘ymadi,
Oyo nasiba bo‘lmadi,
Ehromi Uchqo‘rg‘on ekan.



«HAJVI AHLI RASTA»

Arzim buki Qori sumalakka,
Yetkursa boshini ham falakka.

Gah-gah nazora aylasin ul,
Ibrat ko'zi birla bu samakka.

Sangyoda nosdonni maqtab,
So'z naqdini urmasun mahakka.

Ulfatlari, shamgarmi ahmoq,
Sham qaychini bog'lasin etakka.

Sallohbachcha – otlari Jalilboy,
To'rt tepkini yedilar xo'rakka.

Shokir qora tarz odam ermish,
Ming la'nat o'shal qora eshakka.

Ko'p haddidin oshmasin Nazirbek,
O'xshaydi ul oshqovoq hamakka.

Pul kelmasa bankadin boyvachcha,
Karnay choladur bo'lar-bo'makka.

Ul lokicha boyvachcha dastor,
(Yelgani)da o'xshatur bo'zakka.

Kofircha degan bir Ahmadjon bor,
Ko‘p shug‘li baland hangramakka.

A‘lamni(ng) o‘g‘illari Olimjon
Hayfi to‘n-u salla gungalakka.

Bir zarra rioya qil to‘ramni
Qo‘sh ramz suxan bilan ko‘makka.

Sil aft oriqqina Muhiddin
Ahvoli ayon bo‘lur kuzakka.

Fozilxo‘ja degan oqfurush bor,
Daf har maraz ila zindalakka.

Olib borur o‘ldi Qosim oxund,
Bizni Qorako‘lga, handalakka.

Usmonchani(ng) soati yarashmish,
Rishxo‘r alishurmu mo‘ychinakka.

Mavlon eshigida ota Fozil,
O‘xshaydi baroq desam ko‘pakka.

Kir ko‘ylak o‘libdilar Umarjon,
Sotmoq uchun emdi jun jiyakka.

Chinni bila choy sotur Jalolxon,
Jononni qo‘shilturur hashakka.

Mirhamza boy o‘g‘li Kichkinajon,
Nisfi gaz emas, kelur seyakka...

Iqonbachcha birla Bulbul o'g'li
O'xshaydi har ikkisi pufakka.

Ul hoji Hasan degan zakiy ta'b,
Yo'q toqatim anga so'z demakka.

Nusrat bila oshnoligim bor,
Tentakina, shatrama-shatakka.

So'fini(ng) bolasi Abduqodir
Qattiqlig'i o'xshamish danakka.

Hoji kasal o'g'li bodraftor
Dog'uliki, pand berur Kamakka.

Qosim shamol andaki yengilroq,
O'xshab uchar xuddi bodparakka...

Ortiqbachani semirtiringlar,
O'q bo'lg'usi katta zambarakka.

El ani(ng) akasin o'xshaturlar,
Burnin sumak, og'zini tuvakka.

Ko'r, ishtahasini Xo'jabachcha,
Osh solib ichar emish chelakka.

Yo'ldoshni demish Xitoy tabibi,
Bodbar muxolifi yurakka.

Ellikboshi o'g'li mokiyanboz,
Ustoz bo'libdi kurkurakka.

Qoribacha sinchalakka o'xshar,
Farzinbacha misli voyvayakka.

Qozi qiziga duolar ayting,
Ul nasli bashar emas malakka.

Farzin bisoti lolaruxlar,
Olamni musaxxar etdi yakka.

Ey Xo'ja jahon, ko'p achchig'im tez,
Ham yetdi pichoq borib suyakka.

Nusratga yarashdi yaqosi,
Boshin suqadurki, har katakka.

Abdullahoji ko'p suyulganidin,
Ming martaba chap berur kurakka.

Mashhur o'sha ko'r Meli erursan,
Boshing agar yetsa ham falakka.

Kirsa xaloga uch kun uxlab,
Ko'knar kayfida ketar pinakka.

Gap ta'sir aylamaydi senga,
Ablah, til slepoy eshakka...

Gap ta'siri kutmasun Mo'minshoh,
Osh yeb, og'iz artmasin patakka.

Toshkent o'tag'asi Fayzi shayton,
Qo'l qo'ydi po'kon bilan tezakka...

Izvesni vagonchi tund ko'r Odil,
O'lmay turib o'xshaydi kesakka.

Ko'r bo'lmasa pul oqib kelurmu,
Bu badshakl, slepoy durakka.

Qirq olti qishni fasona qildim,
Kim chiqsa o'qiydi Mo'yमारakka.

Ta'bingni arobasini to'xtat,
Shotisini bog'la g'ildirakka.

Zavqiy osilurg'a himmatidin,
Dor bog'ladi bir baland terakka.





MAXTUMQULI



G'AZALLAR

* * *

Sensan oroyishi jon, bu jon Sendan bexabar,
Sen jahonga to'lug'sen, jahon Sendan bexabar.

Andisha daryosinda sirim safiynasini
Yuz tarafga suzdirdim, sayron Sendan bexabar.

Gar desalar kufr o'lar: ashyo Sendan xolidir,
Manzil Sendan mustag'raq, makon Sendan bexabar.

Zamin, osmon, g'arb-u sharq partavingda gardondir,
Zamoniga Sen gardon, zamon Sendan bexabar.

Istar Seni dengizlar, to'lqinlanib shavqingdan,
Sen ular ichra ma'lum, ummon Sendan bexabar.

Zamin tilar osmonda, osmon tilar zaminda,
Bir-biriga gumonda, gumon Sendan bexabar.

Maxtumquli, ko'r endi, ashyolar ne ishdadir,
Yo'q emish bu ashyoda, hamon Sendan bexabar.



* * *

To'rtidir bu jonning zillati,
Sog'liq aning sultonidir,
Tan mulkining sar davlati,
tinmas, o'tar mehmonidir.

Nafs aylabon sarkashligin,
tan taxtining maydonida,
Ro'zi azal ruhing, yaqin,
shul ahd-u shul paymonidir.

Bozorga bul kelgan kishi
ixlosini pok aylasin,
Qobil esa ixlosli qul,
mardonlaring mardonidir.

Desa bo'lar sad ofarin,
ruhin boqib, nafsin ezar,
Haq yo'l aning bozoridir,
Haq majlisi maydonidir.

Voy holiga, nafsin sevar,
jon deb esin ojiz qo'yar,
Ro'zi jazo yo'ldosh anga –
bad ishlarin pushmonidir.

Mard topmadim, qulluq etay,
yo'l topmadim, hajga ketay,
Bu ikki ish bu tan aro
bu joniming armonidir.

Maxtumquli, bir g'amzada,
toki bu dard birlan ketar,
Besh kun bu foniy dunyoda,
bir oshig'ing davronidir.





* * *

Bilmasam hech, qaysi dardning muhtalosidir ko'ngul,
Yo Rab, ul bir benavoning ko'p havosidir ko'ngul.

Ishq daryodir, tubi yo'q, hijron bir o't – o'chmagay,
Ishqqa mayl etgan bu o'tlarga yonosidir, ko'ngul.

Bilmagan otmish o'zin ishq o'tiga parvonadek,
Endi bilmas chorasinkim, ne qilosidir, ko'ngul,

Isoning dami muhol, Luqmon u yerda gung-u lol,
Yo Rab, ul dardning muhol ish davosidir, ko'ngul.

Garchi ishqning dardidir, devonayi jon ofati,
Oshno ahli bu g'amni doim egosidir, ko'ngul.

Necha mahram benavolar topdilar andin navo,
Man etar andan meni, boqdim siyosiydir, ko'ngul.

Yig'labon, Maxtumquli, dargohga arzing aytaver,
Ne uchun, ko'p yig'lagan bir kun kulosidir, ko'ngul.



SHE'RLAR

ADOLAT YAXSHI

Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,
Faqir-u miskinga dalolat yaxshi.
Baxilga uchramang – kular yuz bo'lmang,
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko'rganda kular yuz bo'lgil,
Qo'ldan kelsa, unga taom-tuz bergil,
G'aminni ko'rganda shirin so'z bergil,
Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so'zga aylasa amal,
Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Allohning amriga qilmagil badal,
Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi.

G'ariblik bir darddir – odam o'ldirmas,
O'ldirmas, hayotda lekin kuldirmas,
Bo'riga ojizlik, it ham bildirmas,
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukur, shirin til berdi,
Daraxtlar ko'karib, samar, gul berdi,
Go'ro'g'li Rayhonga qanday yobordi?
Omonlik deganga diyonat yaxshi.



NAMASAN?

Asli seni ko'rmaganman, dildorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G'amgin dilni xayoling-la aldarman,
Bog' ichinda bir gulmisan, namasan?

Qaroqchimi, yo sayyidmi, xo'jami?
Yo soqiyimi, yo sharobmi, yo jommi?
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami?
Yo oymisan, yo kunmisan, namasan?

Yo mushkmisan, yoki jambil, yo anbar?
Aytolmayman, yo charxmisan, yo chamber?
Daryomisan, yo mavjmisan, yo sarvar?
Girdobmisan, to'lqinmisan, namasan?

Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan,
Oftobmisan, osmonmisan, yermisan?
Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan,
Yo chirog'mi, ziyomisan, namasan?

Maxtumquli, kechgin kibr-u oringdan,
Qo'lingni tort bu vafosiz koringdan,
Jahon to'la, sen g'ofilsan Yoringdan,
Yo mastmisan, shaydomisan, namasan?



IKKI DUNYONING SULTONI

Ey yoronlar, musulmonlar,
Ikki dunyoning sultoni,
Ro'zi azalda yaratdi
Rasul jasadinda jonni.

Yerda Musoning Turidan,
Ko'kda bihishtning huridan,
Yaratdi Rasul nuridan,
Oy-Kunni, Yer-u Osmonni.

Orzu aylab gul ruxsoring,
Kezdim tog'inda abrorning,
So'rog'ini solib yorning,
Gasht etdi ko'nghim dunyoni.

Aqlim hayron bo'lib shoshdim,
Oxir bir yerga yetishdim,
Oltmish olti tog'dan oshdim,
Kechdim o'n ikki daryoni.

Maxtumquli, beqarorsan,
Bu ne o'tdir, sen yonarsan,
Har narsadan bekanorsan,
Bilmassan sud-u ziyonni.



BILGAN BORMI, YORONLAR

Ishq yo‘lin havas aylab,
Kelgan bormi, yoronlar?
Dardimni bayon etsam,
Bilgan bormi, yoronlar?

Bo‘lmisham mast-u shaydo,
Hazor pasha, sad-savdo,
Olamda menday rasvo
Bo‘lgan bormi, yoronlar?

Tashim dard, ichim biryon,
Etarman nola, giryon,
Mendayin mast-u hayron
Qolgan bormi, yoronlar?

Yolg‘on dunyoda yayrab,
Kezarman kulib, o‘ynab,
Ishq matbaxinda qaynab,
O‘lgan bormi, yoronlar?

Ishq duch kelsa bir mardga,
Xok bo‘lar, do‘nar gardga,
Mendayin o‘zin dardga
Solgan bormi, yoronlar?

Tob etmayin zulmga,
Bordi holim o'limga,
Yig'lamayin holimga,
Kulgan bormi, yoronlar?

Maxtumquli jon cheksa, 7 118
Rahm etmaslar, yosh to'ksa,
Ishqing yo'linda, yo'qsa,
Tolon bormi, yoronlar?





SENDAN SO'NGILARGA YODGOR BO'LAR!

Yaxshilikda o'zin elga tanitgan,
Olqish olib, darajasi zo'r bo'lar.
Yomon bo'lib, yaxshilikni unutgan,
Izzatin yo'qotar, itdan xor bo'lar.

Mungli bo'lar murodiga yetmagan,
Zalil bo'lar Haq amrini tutmagan,
O'z rizqiga hech qanoat etmagan,
Ko'zin tikar kas oshiga, zor bo'lar.

Har kim yomonlasa tengi-to'shini,
O'zi mushkul etar oson ishini,
Kim tark etsa aql bilan hushini,
Qilar ishin bilmas, sharmsor bo'lar.

Murodi kech bo'lar yo'li yang'ilgan,
Beixtiyor bo'lar qo'li tang'ilgan,
Kurashda yig'ilgan, jangda yengilgan
Ichi to'la nomus bilan or bo'lar.

G'ayrati kam bo'lar gavhari ozning,
Qiymati past bo'lar motamda sozning,
Uyiga borsangiz bir beniyozning,
Ko'kragi qisilar, ko'ngli tor bo'lar.

Kim baloni sotib olsa boshiga,
Rashk etib, raqiblar kechar tashiga,
Ruju qilsa kim bajarmas ishiga,
Savdosidan kela bilsa, er bo‘lar.

Keyin tavba etmas haq yo‘ldan ozg‘on,
O‘t yoqsang, qaynamas bir quruq qozon,
Fahm eting, har yerda bir fe‘li yomon,
Yovuz musallatga sazovor bo‘lar.

Xazonga aylandi umrimning guli,
Nazarin past tutar eldan, bergili,
Beiqbol, yoziqli, yomon ko‘rguli –
To‘qnash kelsa, bir yomonga yor bo‘lar.

Oldda-ortda ko‘rsang har kas g‘ulomin,
Undan ayamagin Tangri salomin,
Kim o‘qib, unutsa, Haqning kalomin,
Qiyomat kun ikki ko‘zi ko‘r bo‘lar.

Holi mushkul bo‘lar kuyib yonganning,
Iymoni shikast yer harom yeganning,
Qasddan ro‘za, namozini qo‘yganning
O‘zi kofir bo‘lib, joyi nor bo‘lar.

Maxtumquli, so‘zla har ne bilganing,
O‘zingga oid bil aytgan o‘laning,
Tarashlab, porlatgil dilga kelganing,
Sendan so‘nggilarga yodgor bo‘lar!



CHIN BEDOVLAR MAYDONINDA BILINAR

Eshak o‘zin kam deb bilmas bedovdan,
Qiyamat bersang, ot yonida bilinar.
Bedov degach, bo‘lmas hamma bedov teng,
Chin bedovlar maydoninda bilinar.

O‘g‘lonlikda bilmas eding, bek eding,
Yomonga hech yoqmas so‘zing, o‘guting,
Orif bo‘lsang, aslin so‘rma yigitning,
Adabinda, ikrominda bilinar.

Bu jahondan to‘ymas ko‘zing, ser bo‘lmas,
Har tulkidan yo‘lbars bo‘lmas, sher bo‘lmas,
Yigit degach, hamma yigit bir bo‘lmas,
Bo‘z yigitlar mehmoninda bilinar.

Davlat qo‘nsa bo‘z yigitning boshinda,
Himoyatli eli kerak qoshinda,
Yigit o‘zin ma‘lum etar ishinda,
Qilichinda, zaboninda bilinar.

Maxtumquli, g‘ariblarning ko‘z yoshi
Tog‘larni yondirib, eritar toshi,
Faqirga jabr etgan zolimning ishi
Ro‘zi mahshar devoninda bilinar.

XABAR BER!..

Turdi shoir bilan dardlashuv

Maxtumquli:

– Ul nimadir, yashil-qizil o‘sadir?
Ul nimadir, oyog‘i yo‘q kezadir?
Ul nimadir, yetti daryo suzadir?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

Turdi shoir:

– Ul ekindir, qizil-yashil o‘sadir,
Ul ilondir, oyog‘i yo‘q kezadir,
U baliqdir, yetti daryo suzadir,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

– Ul nimadir, yoqasi bor, yoni yo‘q?
Ul nimadir, qanoti bor, qoni yo‘q?
Ul nimadir, odam yutar, joni yo‘q?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

– Ul kafandir, yoqasi bor, yoni yo‘q,
Kapalakdir, qanoti bor, qoni yo‘q,
Qaro yerdir, odam yutar, joni yo‘q,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

– Ul nimadir, darvozasiz qal‘adir?
Ul nimadir, derazasiz binodir?
Ul nimadir, bir-biridan a‘lodir?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

– Ul ko‘nguldir, darvozasiz qal‘adir,
Ul qabrdir, derazasiz binodir.
Ul oy-kundir, bir-biridan a‘lodir.
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

– Ul nimadir, yemadilar, to‘ydilar?
Ul nimadir, qiyomatga qo‘ydilar?
Ul kim edi, tovonidan so‘ydilar?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

– Ul diydordir, yemadilar, to‘ydilar,
Ul namozdir qiyomatga qo‘ydilar.
Nasimiyning tovonidan so‘ydilar,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

– Ul nimadir, yetti o‘lka kezadir?
Ul nimadir, belin bir zot ezadir?
Ul nimadir, odam kabi sezadir?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

– Ul cho‘pondir, yetti o‘lka kezadir,
Ul qo‘y erur, belin tayoq ezadir,
Bedov otlar odam kabi sezadir,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

– Ul nimadir, tuproq uzra surinmas?
Ul nimadir, odamlarga ko‘rinmas?
Ul nimadir, hech bir to‘nga o‘ranmas?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

– Eranlardir, zalil bo‘lib surinmas,
Ul balodir, kelsa ko‘zga ko‘rinmas,
Yolg‘on guring oshkor bo‘lar, o‘ranmas,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!



QANOTIM YO‘Q, UCHA BILMAM, NAYLAYIN!

Ko‘ngil istar, kezsam dunyo-olamni,
Qanotim yo‘q, ucha bilmam, naylayin!
O‘qirmen, ko‘rarmen “Favzul-kalom”ni,
Ma‘nosini socha bilmam, naylayin!

Ko‘plar unda g‘avvos bo‘lib suzarlar,
Menga zohir, xalqdan pinhon kezarlar,
Gul bodada gulgun sharob ezarlar,
Qo‘l uzatib, icha bilmam, naylayin!

O‘y dashtidan sharob isin no‘sh qildim,
Ketdi aqlim, o‘zim bilmay, jo‘sh qildim,
Sarmast bo‘ldim, darsiz ko‘shkka duch bo‘ldim,
Ruxsat bo‘lmay, ocha bilmam, naylayin!

Yitti yo‘lim, tog‘ qaysidir, tuz qaysi,
Bilmas ko‘nglim, ma‘no qaysi, so‘z qaysi,
Fahm aylamam, yo‘l qaysidir, iz qaysi,
Umid uzib, qocha bilmam, naylayin!

Maxtumquli, bu dunyoning hammasin,
Yig‘ib, tugib, qo‘lga berdim nomasin.
Fikr daryosiga aqlim kemasin –
Botirganman, kecha bilmam, naylayin!



CHIN ERLAR IBLISNING YO'LIGA KETMAS

Kel, ko'ngil, boshingni chiqar tumandan,
Yakka qolding g'am uyingda dard bilan.
Nomard bilan uzoq yo'lga ketmagil,
Bosh qo'shaver bir tavakkul mard bilan.

Chin erlar iblisning yo'lga ketmas,
Munofiqlar Haqning amrini tutmas,
Iymon bilan shayton bir uyda yotmas,
Nechuk mador topar, qo'ylar gurg bilan!

Jon shahrinda ajal qushlari yayrar,
Ko'nglimning daryosi mavj urib qaynar,
Gavdor o'g'li, to'ng'iz bilan it o'ynar,
Bek bolasi shatranj o'ynar nard bilan.

Chin oshiqlar bo'lmas tilda ziyoni,
Buni bilgil, iqror saqlar iymonni,
Yaqin kelsa, oxirzamon ayyomi,
Da'vo ortar, ont icharlar shart bilan.

Firog'iy der: yetti iqlim cho'l qolar,
Na xon qolar, na bek qolar, qul qolar,
Na tog' qolar, na tuz qolar, el qolar,
Dajjol chiqar, tarso, juhud, kurd bilan.



HECH KIM BILAN YO'LGA KETMADING, DUNYO!

Bir aybing bor, aytay sening yuzingga,
Hech kim bilan yo'lga ketmading, dunyo!
Oldin kelganlarga muhabbat etding,
So'nggi kelganlarga etmading, dunyo!

So'zla endi, kimni barqaror etding,
Necha kadxudoni xor-u zor etding,
Sulaymon taxtini tor-u mor etding,
Yusufni qul qilib, sotdirding, dunyo!

Naylading sultonni, o'ldirding xonni,
Shohi Kaykovusni, Rustam-u Zolni,
Devlarga hukm etgan Sulaymon qani? –
Ular bilan birga ketmading, dunyo!

Yigit kerak, maydon ichra tik bo'lar,
Yigitga o'q bilan yoylar otilar,
Bobo Umar ketdi, qayda qutular,
Uni quva-quva sen tutding, dunyo!

Maxtumquli, Sendan qo'r qar yuragim,
Haq yoninda qabul bo'lsin tilagim,
Hasan, Husayn, Arsh-u Kursi keragim,
Karbaloda shahid sen etding, dunyo!



BU DUNYONING G‘AVG‘OSIGA BOSH URMA

Bu dunyoning g‘avg‘osiga bosh urma,
Ul g‘avg‘oga kirsang, chiqa bilmassan.
Mal’un shayton kabi bezab, tosh urma,
So’ngra mahkam bo‘lar, yiqqa bilmassan.

Tilingga o‘rgatmish Haqni, sanoni,
Ranjitmagil ota birla ononi,
Tog‘lardan, toshlardan ulug‘ gunohni,
Og‘irdir gunohing, cheka bilmassan.

Qorningni to‘ydirma harom ne‘matdan,
Tilingni saqlagil turli g‘iybatdan,
Olimlarga qilma yovuz tuhmatdan,
Qorning o‘tdan to‘lar, to‘ka bilmassan.

Darveshlarning boshlarini xor etma,
O‘ksiklarni yig‘latibon zor etma,
Yetimlarning molin olib, zo‘r etma,
Gunohni g‘ayriga taqa bilmassan.

Ishq daryosi jo‘shar – kelar saxodan,
Ko‘nglingni saqlagil yolg‘on vaqodan,
Ajal kelar, tutar bir kun yaqodan,
Sog‘ingga, so‘lingga boqa bilmassan.

Yaxshi niyat ayla, yaxshi pesh ayla,
Yaxshilarning so‘zin jonga no‘sh ayla,
Safar qilsang, oziq kerak, do‘sh ayla,
Yer ostinda ekin eka bilmassan.

Miskin Maxtumquli, yoqang tutaver,
Xayr aylabon, ul sharobdan yutaver,
Ummat bo‘lsang, Biruborga ketaver,
Rasulning yuziga boqa bilmassan.





KO'RING ODAMZODNI, NE XAYOL ETAR?!

Do'stlar, bel bog'lamang ko'hna dunyoga,
Bu dunyo bozinger, biling, ol etar.
O'zingni tashlayur daryo tubiga,
Olar joning, so'zlar tiling lol etar.

Xush so'zlagil, bir musofir duch kelsa,
Xursand bo'lar, g'arib ko'ngli bo'sh kelsa,
Mard yigitga yomon xotin duch kelsa,
Yigit yoshda soch-soqolin chol etar.

Kamollik so'zidan jon bo'lar toza,
Beg'amlarning shakli o'xshar to'ng'izga,
Bu dunyo aylanmish bir chirik xasga,
Ko'ring odamzodni, ne xayol etar?!

Yigit bor – qarasang, cho'lning hayvoni,
Yigit bor – qarasang, jonning darmoni,
Mardlardan dunyoga kelgan kayvoni,
O'zi yil-kun xizmasingda yo'l etar.

Bir pisand ish chiqmas undan hech so'zda,
Yaqin-u yotini bilar bir ko'zda,
Ikki xasm shayton solsa angizda,
Aro tushsa, zahar og'zin bol etar.

Maxtumquli aytar: dunyoning ishi,
So'zning ma'nosiga yetmas har kishi,
Har kishining o'lsa tuqqan qardoshi,
Falak uning alif qaddin dol etar.

TIG' YARASI BITAR-KETAR

Ko'nglim, past tutgil o'zingni,
Foniy dunyo o'tar-ketar.
Har kim qadamin tuz qo'ysa,
Guzardan bexatar ketar.

Bilsang, xush guftor ochaver,
Bilmasang, jimjit kechaver,
So'z yarasindan qochaver,
Tig' yarasi bitar-ketar.

Asli dilda chekma jafo,
Bad aslda yo'qdir vafo,
Har kishi bo'lsa besafo,
Obro'yini to'kar-ketar.

Yo'ldosh bo'lsang kishi bilan,
Qulluq aylar boshi bilan,
Ishing tushsa noshiy bilan,
Tog'-u toshga otar-ketar.

Maxtumquli, borsang mundan,
Xayr-u sharr so'rarlar sendan,
Shirin jon ayrilsa tandan,
Qum-tuproqqa botar-ketar.



JAHON BO'LDI MUNAVVAR

Chiqdi mag'rib tarafdand,
Ul mehribonim keldi,
Yuz ishva-yu noz bilan,
Joni jahonim keldi.

Men Yorning sarniguni,
Bog'labon bu oyinni,
To'kdi jigardan xunni,
Shoh-u sultonim keldi.

Olamga shohiparvar,
Bo'ldi ummatga sarvar,
Jahon bo'ldi munavvar,
Durri g'altonim keldi.

Qomati sarv-u tubo,
Qaddi, o'zi Muntaho,
Vajhi-ro'yi – "Vaz-zuho",
Sarvi ravonim keldi.

Niqobin yuzga solgan,
Yuz ko'rsatib, jon olgan,
Hamma orzulab, yongan,
Oh-u fig'onim keldi.

Malak farmona boqqan,
Sidrati sahro chiqqan,
Oh ursa, Arshni yoqqan,
Sohibqironim keldi.

Maxtumquli, benavo,
Ko'zlama sanad sivo,
Ummatim! – deb doimo,
Hazrat Eshonim keldi.





BILDINGMI?..

Qalam olib, nomani go'ndarganim bildingmi?
Afsun urib, Hudhudni indirganim bildingmi?
Arsh ustiga ko'tarib, mindirganim bildingmi?
To'rt kecha, uch kun yig'lab, tindirganim bildingmi?
Markab mingan Isodek yeldirganim bildingmi?

Majnun kabi sahroda yig'lay-yig'lay kezganim,
Ko'z yoshimni marjonday tizim-tizim tizganim,
Varqo kabi Gulshodam o'lib, umid uzganim,
Jo'shqin bo'lib ishq o'ti, qaynab-qaynab qizganim,
Shibliy kabi bir tog'ni yondirganim bildingmi?

Hudhud kabi Farangdan Chin-Mochinga borganim,
Bog' ichinda Bilqisning sochin ochib ko'rganim,
Sulaymonning taxtindan so'zlab, xabar berganim,
Qush qo'nsin deb boshimga, bulbul kuyin qurganim,
Chorshanba kun chosh vaqti ko'ndirganim bildingmi?

Surohning orqasinda Majnun qurdi jodani,
Bismilloh deb boshladi, chaqirdi ustodini,
Haqdan g'ayri bir kimsa eshitmadi dodini,
Qirq oshiq na'ra tortib, shu'lalatdi o'tini,
Ko'z yoshimdan suv olib, so'ndirganim bildingmi?

Shirvonxonning savdosi, ne ajoyib savdodir,
Qil ko'prikdan toydirsa, qiyomat kun rasvodir,

Yuz yigirma saf qurib, har safda bir g'avg'odir,
Oshiqlik bir – jo'shqinlik, oqmas toshqin daryodir,
Bir jur'adan qirq oshiq qondirganim bildingmi?

Yetilmamish shunqorim, qamish qanot, oq turpoq,
Dunyo meni toydirdi, bir yonim qildi urpoq,
Jonon jigarim tilib, tortar qon, qo'ymas tuproq,
Har tikandan yuz shona, har qirq guldand bir yaproq,
Tog'-u toshni aylanib, undirganim bildingmi?

Maxtumquli so'zlagay: to'qqiz falak Zuhrosi,
Yetti yulduz qardoshi, Oyning, Kunning porasi,
Nuri diydam yaktosi, ko'zim oq-u qarosi,
Obi Zamzam chashmasi, Safo-Marva arosi,
Sulaymondek ahdimni do'ndirganim bildingmi?





IYMON PAYDO

Kelsa navro‘z olamga, rang qilar jahon paydo,
Bulutlar ovoz urib, tog‘ qilar tuman paydo,
Bejonlarga jon kirib, etarlar dahon paydo,
Ko‘karmagan giyohlar ko‘karib ravon paydo,
Yetarlar hayvonotga ham sud, ham ziyon paydo.
Yer yuziga yoyilib, yurarlar nihon-paydo,
Vobasta dahon qushlar qilarlar zabon paydo.

Cho‘l tarafin berkitib, dar ochar suvga xarchang,
Zamin sabzazor bo‘lib, tanidan ayrilar zang,
Jonivorlar mast bo‘lib, go‘yo ichmish aroq, bang,
Har ashyoning o‘ziga o‘z ovozi bo‘lar gang,
Sabza ichra sanduvoch yuz tilda qilar ohang,
Zamin xizrpo‘sh bo‘lib, gul ochibdir rang-barang,
Xurujga kelib olam, qilarlar fig‘on paydo.

Surud-u sado birla jahon yuzi oboddir,
Bo‘lma surudga mag‘rur, oqibati barboddir,
Haq ishqinda zinda jon, biling, boqiy hayotdir,
Har tandaki ishq yo‘qdir, ro‘zi azal mamotdir,
Yoz o‘tguncha Yer-u Ko‘k kundan-kunga ziyoddir,
Bir hashri qiyomatdir, bir yavmi arosatdir,
Dahr ichra bo‘lar har dam, jahon ichra jon paydo.

Zarbofga zavqing qo‘yma, baqo yo‘qdir davlatda,
Umringni yelga berma, sen bu dorul-mehnatda,

Yetar senga erta-kech, ne yozilsa qismatda,
Joningga jaf o aylab, buncha kezma hasratda,
Savob yaxshi amalda, yoxud yaxshi niyatda,
Olam barcha xizmatda, odam yotar g' aflatda,
Hosiling otash bo'lgay, aylasang yomon paydo.

Maxtumquli, yig'larman bu baxti siyohimdan,
Qo'rqarman jon ofati – qo'l-oyoq guvohimdan,
Umidim hosil bo'lmas, bu umri tabohimdan,
Jon kuydi jasad ichra, bu otashi ohimdan,
Qo'lim cho'zib, tilarman hojatim Allohimdan,
Bandaman, umid shulki Ul karamli Shohimdan,
Aylagay arosatda gul kabi iymon paydo.





HAJVIYOT

CHILIMKASH

Haq seni ra'yingga qo'ymish jahonda,
Qila bilganing qil bunda, chilimkash.
Devon qurilgan kun hisob joyinda,
Javobing nimadir unda, chilimkash?!

Quvvating kamayar, kuching oz turar,
Kayfi boshga ura, aqling ozdirar,
So'ngaging qaqshatib, eting qizdirar,
Bir nishona budir senda, chilimkash!

Qo'lingni tort bunday nohaq taloshdan,
Puling kuyar, iching yonar bu ishdan,
Erta qorning to'ldiralar otashdan,
Zaxmi chiqmas, qolar jonda, chilimkash!

Ikki dunyo yaxshilik yo'q egriga,
Erkak bo'lsang, qadam qo'ygil to'g'riga,
Benamozga, g'iybatchiga, o'g'riga
Yo'ldosh bo'lar yovuz kunda chilimkash!

Maxtumquli, Mavlom jondan yaqindir,
Chilim achchiq tutun, tan bir zamindir,
Iymon bir qushdir-u, gavda bir indir,
Qush turmagay buzuq inda, chilimkash!



G'IYBATCHI

Mahshar kuni shikoyat bor tilingdan,
Rasvoliging shudir sening, g'iybatchi!
Umring yelga berma, ozma yo'lingdan,
Ranjitmagil eling, kuning, g'iybatchi!

Bulutdek o'kirib, chaqindek gurlar,
Gohi muzdan taxtlar, olovdan yerlar,
Xachirdek chayonlar, bug'rodek morlar,
Badaningdan so'rar qoning, g'iybatchi!

Holing ko'rib, hayron bo'lib yig'larlar,
Seni Sijjiyn otli joyda bog'larlar,
Tiling tortib, temir bilan dog'larlar,
Qora bo'lar ul Kun kuning, g'iybatchi!

Yomon so'z ajratar yaxshi do'stingdan,
Gunohing yuklari bosar ustingdan,
Jahannam ichinda tamug' ostindan
Falaklarga chiqar uning, g'iybatchi!

Malaklar, ko'tarib gurzi urarlar,
Andomingdan suvdek oqar zaqarlar,
Vashillab turgaydir yoningda morlar,
Qaqshatib so'rilar taning, g'iybatchi!

Bir dam qutulmassan do'zax norindan,
Taningga o'ralgan ilon zahrindan,
Shul azobda hasratingdan, zoringdan
Falaklarga uchar uning, g'iybatchi!

O'rin berar senga, eltib bir joyda,
Kuning kechar kecha-kunduz oh-voyda,
Azobing orttirar sening har oyda,
Chilimkash hamrohing – yoning g'iybatchi!

Ro'siyosan mahshar kuni Karimga,
Alloh savobingdan olar jarima,
Iymonsizdek ko'rib, eltar jahimga,
Gila etar sendan joning, g'iybatchi!

Maxtumquli aytar: elning – ko'zindan
Qolib, gar xor bo'lsang, ko'rgil o'zingdan,
Tilingni tiymasang harom so'zingdan,
Butkul barbod bo'lur dining, g'iybatchi!





KO'ZDAN YOSH KELSA

Dunyoda necha ish bordir – yomondir,
Biri shuldir – nohaq qahri jo'sh kelsa.
Oshiqqa har kuni oxirzamondir,
Yordan yiroq tushib, aro tosh kelsa.

Do'stingni ushlama, nafdan qolmasin,
Dushmaning saqlama, siring bilmasin,
Ochda – olging, bekka berging bo'lmasin,
Ish mushkuldir, anglamasga duch kelsa.

Zamin seni hali zamon yutarmi,
Oqil bunda bunday beg'am yotarmi,
Hech bir masxaralik bundan o'tarmi –
Ketgan quruq ketib, kelgan bo'sh kelsa.

O'n qat uying bo'lsa temir qal'adan,
Ajal topar, amr bo'lsa Allohdan,
Haqiqat er yuz qaytarmas balodan,
Haq rizosi bilan boshga tosh kelsa.

Oshiqman deb lof urarlar yolg'ondan,
Bilganini aytar, so'rsang bilgandan,
El ko'zicha yuz yil toat qilgandan,
Yaxshidir, bir saqar ko'zdan yosh kelsa.

Boylar bog'lab saxovatning yo'lini,
Ko'paytirar do'zax moyi-xilini
Ko'ring, bu zamonning so'fi, pirini,
Tinmay olaverar, tekin osh kelsa.

Maxtumquli, so'yla, aqling yetguncha,
Oxirating qozon, bekor yotguncha,
Do'zaxdadir, to dunyodan o'tguncha,
Yaxshi erga yomon xotin duch kelsa.





ABDULLA AVLONIY



SHE'RLAR

VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pas(t)dur.
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.
Yering, suving bizni boqib to'ydiradur,
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum – mevalaring,
Ot-u ho'kiz, echki, taka, tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne'mat parchalari.
Sandan tug'ib, katta bo'lib, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,
Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!
Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,
Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.
Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,
Yemush berib yem o'miga yem olmaduk.
Bilolmaduk ko'ksingdagi xazinani,
Biz bilmasmiz tosh-tarozu, mazinani.
Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botib,
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.
Seni sotub pul qilurmiz – ketur-qolur,
Bir yildan so'ng bahong ikki bo'lub olur.

Tarbiyatsiz, ilmsizlik jazosidur,
Jaholatning boshga solgan azosidur.
Selobi g'am kelmas burun jadal birlan,
Tu(v)g'onini to'xtatmagan bo'lur Hijron.

BIZ, MILLAT

Na xo'rliq, na qasolat? – Doimo afgor biz, millat,
Hama gul dasta qilsa, ne terarmiz? – Xor, biz, millat.
Jaholat qaziyasi do'ndurdi istiqboli rif'atdan,
Ma'oz-illoki, na iqrar, na inkor – biz, millat.
Tutub selobi g'aflat mavji g'amg'a tashladi, hayhot,
Jahon Jayhunlarig'a to'mayi tayyor – biz, millat.
Tamaddunfeshalikdan o'zgalar ruhi mujassamdur,
Hayota qobil ermas, surati devor – biz, millat.
Hama ilm-u hunar asbobini olmaqni istarsa,
Chafon, chalma, riyo sotmoqg'a xo'b tujjor – biz, millat.
Tafakkur soyasida o'zgalar shahd-u shakar ersa,
Tururmiz baqrayib har go'shada bekor – biz, millat.
May-u minosini tark aylasa ag'yor, bizlar, oh,
Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor – biz, millat.
Hama kasb-u kamolot etsa hosil ilm-fan birla,
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi – ko'b xor – biz, millat.
Taqozoyi zamon, har jins kiysa jismig'a loyiq,
Qilib qof-xaltadan ko'lmak-chopon – beor – biz, millat.
O'zi bilmas, sani dushman, sani johil bilur, Hijron,
Hayot-u ruh kerakmas – jismidan bezor biz, millat.



MAKTAB HAQINDA

Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab,
Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab,
Maishat bobida ranj-u alamdand qutqarur maktab,
Hayot-u ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab.
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Taraddud birla doim dur oling daryoyi maktabdan,
Tering jon rastasig'a xo'b zabarjadhoyi maktabdan,
Topar maqdudini har kim qidirsalo'loyi maktabdan,
Umidim shul, jo'juqlar, uzmasanglar poyi maktabdan—
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir,
Hunar bog'ida tubi qad aziz ilm o'lmasa, nedir,
Nasimi mushki to'tori tamiz ilm o'lmasa, nedir,
Gulob, tarbiyati jahli mariz ilm o'lmasa, nedir.
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Hama xursandlikni ma'danidur ilm, ey o'g'lon,
Hama fazl-u karamni manbaidur ilm, ey o'g'lon,
Hama xo'blarni xo'bin maskanidir ilm, ey o'g'lon,
Hama islom elini masnadidur ilm, ey o'g'lon,

Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Takabburlar qatorida havog'a bo'lmasang mag'rur,
Dutor-u tanbur-u chang-u navog'a bo'lmasang mag'rur,
Taraddud vaqtida bazm-u kazog'a bo'lmasang mag'rur,
Bo'lib hajrida Hijron mahliqog'a bo'lmasang mag'rur,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi g'ilmonni berur maktab.





ISTAMAS

Hech inson dunyoda faqr-u fanoni istamas,
Hech tan o'z jonig'a ranj-u baloni istamas.

Aylama pand-u nasihat nokasa behudakim,
Qobiliyat bo'lmasa, sharm-u hayoni istamas.

Ilm rohidan adashgan besarupolar abas,
Bexabar kavnaynidan, rohi Xudoni istamas.

Mayli jannat aylamas diydoridan ummi,
Tolibi diydor emas, amri Xudoni istamas.

Sidq ila shar'i payambarg'a amal qilmaski ul,
Ro'zi mashharda Muhammad Mustafoni istamas.

Choriyori bosafog'a har kishi munkir esa,
Ul Hasan birla Husayni Karbaloni istamas.

Har kishida bo'lmasa ixlos hubbi xonadon,
Nuri chashmi Mustafo xayral-nisoni istamas.

Har kishini tabida gavharshinosi bo'lmasa,
Qadri qimmat bilmasa, qimmatbahoni istamas.

Kimki ummatdur, biling, har ishda payravliq qilur,
Aysh-u ishratdan kechub zavq-u safoni istamas.

Ummar ersa har kishi millatni anduhin chekur,
Kimki Hijron bo'lmasa, millat kazoni istamas.



OLAM ICHRA KO‘RMADIM...

Olam ichra ko‘rmadim kizb-u xiyonatdin bo‘lak,
Mehr-u shafqat o‘rnig‘a shaxsiy adovatdan bo‘lak.

Hamshikamlar, hamnafaslardan farog‘at ko‘rmadim,
Oh, ko‘nglim pora-pora, dil jarohatdan bo‘lak.

Oshino yor-u birodarlardan muqarrar chektim al,
Hech bir shay ko‘rmadim g‘iybat, haqoratdan bo‘lak.

Demak istarman xuruji Mahdiyi Iso qarib,
Uchramas bir shay ko‘za aysh-u sharoratdan bo‘lak.

Shayxlar sayyod o‘lub, saydi murid o‘ldi, darig‘,
Zuhd-u taqvoni na qilsunlar sayohatdan bo‘lak.

Ilm istarlar amaldin zarracha yo‘qtur nishon,
Istamaslar bir shayi nazr-u saxovatdan bo‘lak.

Millati islom uchun hech kimsa zahmat chekmasun,
Bizga onjaq yo‘q zarar zahmat xijolatdan bo‘lak.

Istama Hijron o‘lub nojinslardan daf‘i g‘am,
Bu shajarlarda samar yo‘qtur jaholatdan bo‘lak.



HIJRON SO‘ZI

Tug‘ub o‘sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo‘q jahonda!
Tufrog‘lari o‘sumlikdur,
Manzarasi ko‘rumlikdur.
Bir tarafda tog‘lari bor,
Mevasi mo‘l bog‘lari bor.
Tog‘laridan konlar chiqar,
Yerlaridan donlar chiqar.
Suvlaridur tamli-totli,
Mevasi qand-u nobotli .
Bog‘laridur shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.
Daraxtlari o‘sar firosh,
Falak uzra ko‘tarub bosh.
Havosi o‘ta yoqimlik,
Cho‘llari bor toshlik, qumlik.
Toshkand emas, toshqand erur,
Kesaklari gulqand erur.
Ishlaganga xazinadir,
Dangasaga harinadur.
Kecha-kunduz faryod etub,
Ishlovchini yotur kutub.
O‘tar kunlar, o‘tar zamon,
Ey, Vatanim, bo‘lma hijron!
Men ketsam-da, sen bo‘l omon!
Omon – Vatan, Vatan – omon!



BAHOR

Avval bahor bo'lsa, kulur chamanlar,
Bargak yozur gullar, g'uncha dahanlar.
Barcha qushlar uchar, o'qur chamanda,
Bog'-u bo'ston, tog'-u sahro, o'rmonda.
Yaylovlarda qo'zichoqlar ma'rashur,
Ovozlari yuraklarni dog'lashur.
Har tarafdin suvlar shildirab oqar,
Shildiragan tov(u)shi odamga yoqar.
G'ir-g'ir shamol yelpiratur gullarni,
Gul tebranub sayratur bulbullarni.
Har narsada shodlig' asar ko'rinur,
Ko'mak bo'lub beda-pichan o'rilar.
Ekinchilar har xil oshliq ekarlar,
Tuxumlarin yerni haydab tikarlar.
Dangasalar bo'lar-ketar, deb yotur,
Qish kunida ot-u to'nini sotur.
Ko'p ishlagan ko'p olur, oz ishlagan – oz,
Qish kuni rohatdadur kim ishlasa yoz.
Har kim nima eksa, albat shuni o'rodur,
Ekmaganlar o'zgalarg'a muhtoj bo'lodur.
Keling biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,
Imtihonda ekg'animiz o'rib yig'amiz.
Har kim avval bahorini o'tkarsa bekor,
Yoz kelganda Hijron bo'lur, Ul-Tangri bezor.



YOZ

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,
Shod o'ladur zor yetim-bevalar.
Har yera borsang, hama ma'murchilik:
Handalag-u tarbuz-u qovun – tilik.
Yer gunasha yaqin o'lub nur olur,
Yerga muhabbatli ziyosin solur.
Har kishi o'z nafs uchun ishlagay,
Ishlamagan qishda nima tishlagay?
Bog'lari, bo'stonlari rang-barang,
Mevasi-yu gullariga bir qarang,
Gullari, bulbullari bor bog'lari,
Qo'ylari, qo'zchoqlari bor, tog'lari.
Sutlar-u, qaymog'-qirmizlar serob,
Suvlar oqur soylar aro sharqirab.
Bir tarafda ekinchi, – xirmonchilar,
Bir tarafda o'roqchi – ketmonchilar,
G'ayratlilar g'amini yer vaqtinda,
Tirtishub ishlaydur g'animat kunda.
Ishyoqmaslar yozda yurar guldurab,
Qish kelganda qolgay ko'zi mo'ltirab.



KUZ

Kuz kuni ko'zlara yamon ko'rinur,
Yafrog'i misli za'faron ko'rinur.
Meva o'rniga bog'-u bo'stonda
Shaldirab qaqshagan xazon ko'rinur.
Gullar o'rnida xor ila xashak,
Bulbul o'rnida zag'izg'on ko'rinur.
Ketgay Odam Atoni jannatidek,
Jo'ylari bir sovuq yilon ko'rinur.
Yozni ko'rding, kuzni ham ko'rasan,
Shodlig' ortidan fig'on ko'rinur.
Har kishi foyda ko'rmagay doim,
Sud orqasidan ziyon ko'rinur.
Yig'lagan shod o'lur, kulan yig'lar,
Har daqiqa bo'lak zamon ko'rinur.
Aylanub-jaylanub o'ta(r) bu zamon,
Keti avvalgidan yamon ko'rinur.
Qish kelur boshinga qilich ko'tarub,
Qalqoning paxtalik chapon ko'rinur.
Yoz ishlamading, san ishyoqmas,
Yig'mading don – poxol-u somon ko'rinur.
Ko'zlaring jovdirar yeganga boqib,
Ishchi oldinda osh-u non ko'rinur.
Yoz ko'zim, yoz xating(n)i, tez-tez yoz,
Yoz – omon, kuz – omon, omon ko'rinur.



QISH

Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimg'a meyorincha vor:
Yo'qg'a-yo'g'cha, borlara-borincha vor.
Boylar yog'liq palovni tanchada g'amsiz yemas,
Kambag'allar och-yalang'och chekg'on ozorincha vor.
Yerlarga tushgan qirovlar ham daraxtda bulduruq,
Yozni yashnab o'sadurgon sabza gulzorincha vor
Qish kuninda ho'l o'tunning achchig'i,
Yoz kunining mushki totorincha vor.
Ul sovuqni shiddatidin yaxlagan muzni ko'ring,
Boylarning oynabandlik sirli devorincha vor.
Har kim uyiga yog'ilgan to'da qorlarga qarang,
Unfurush xannotlarning yig'gan omborincha vor.
Siz daraxt ustidagi oq qorlarga aylang nazar,
Mullalarning chulg'agan boshiga dastorincha vor.
Bir tarafda qaltirab turgan tilanchiga boqing,
Ko'zlarining yoshi irmoqlarni(ng) asrorincha vor.
Bu sovuq rahm aylamas beva-yetimlar holina,
Kim yetar faryodina? – Bu hol dushvorincha vor?
Ko'rdingizmi, yaxshi qushlarni quvar o'z mulkidan,
Olti oy surgunda jon(i)vor, joni bezorincha vor.
Hosili: qish borni selob, yo'qlari Hijron qilur –
Bu sovuqning zulmi zolimlarning atvorincha vor.



QIT'ALAR

Ming ayshimni qiluram hadya birgina g'amga –
Ki, aysh-u xob-u xayol-u g'amim manga yo'ldosh,
Agarchi baxti qaroyam, ki hech g'am chekmam,
Charoki, baxtim erur holi millata o'xshosh.

* * *

Maorif uyini bolosidur o'y-u vatanim,
Funun bog'ini ra'nosidur gul-u chamanim,
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujuda ziri vahm,
G'arib millatimning xokidur go'ri kafanim.

* * *

Suhbati solih qilur komil sani,
Suhbati johil qilur fosiq sani,
Tirgizodur ko'nglingni arbob-u hol,
O'ldurodir qalbing(n)i arbobi zilol.

* * *

Yaxshi do'st aybi yor-do'stini,
Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.
Yamon o'rtog' tarog'cha ming til ila,
Orqadan burmalab tarab so'zlar.



SHUHRAT



BALLADA

MARDLIK AFSONASI

Uzoq-uzoq o'tmishlar tarixin titsam,
Massagetlar shonidan bir qissa bitsam,
Afsona deb, kitobxon, qo'limni tutma!
Shonli uzoq o'tmishdan ko'zing berkitma!
Axir, qancha chuqurdan qaynasa buloq,
Suvi shuncha pok bo'lur, shuncha totliroq!
Ko'hna tarix bu kunga gar bo'lsa ibrat,
Uni eslab turmoqlik kerakdir albat.
Afsonaga o'xshaydi qissaning o'zi,
Ammo unda mavjuddir haqiqat izi.
Haqiqatdan tug'ilar ba'zan afsona!
Ulush qo'shsa ne ajab ertakchi ona.
Baxshi unga bog'lasa qanot va quyruq,
Qalbi bergach ko'ksidan shunday bir buyruq!
Tariximiz ko'p ulkan, kekxa, beqiyos,
Har yili yuz dostonga bo'lur bir asos!
Amudan suv ichganmiz, cho'lda mol boqib,
Bobotog'da yurganmiz lolalar taqib...
Ba'zan dushman kelardi tomog'in qoqib,
Jang qilganmiz qirlarda, tunda o't yoqib.
Bir kun yurtga ot soldi bosqinchi Eron,
Kayxusravning niyati: yer-suv, mulk, qiron...
– Bosh eg! – dedi ellarga, – men yashay mag'rur.
Men o'tganda qo'lingni qovushtirib tur!

Menga bo'shat uyingning yumshoq to'rini!
Menga bo'shat yoz chog'i salqin so'rini!
Kabob yasa qo'zining barra go'shtidan,
Xazinamga soliq yig' bog', qir, dashtidan!
Haramimga to'plansin tam-tam go'zallar!
Shavkatimga to'qilsin doston, g'azallar!
...Nayrang bilan Amudan o'tdi ot solib,
Bayrog'ida shum ajal, erksizlik olib.
Tinch bir o'lka oromin yo'qotdi shunda,
Hatto go'dak ko'ksiga o'q otdi shunda!..
El-u yurtni qopladi motam libosi,
Qon yig'ladi hattoki, ko'lida g'ozi.
Qon yig'ladi el, elat, urug' va aymoq,
Qon yig'ladi dala-tuz, sahro, qir va bog'.
Qon yig'ladi beshikda tilsiz norasta,
Qon yig'ladi chol-kampir, dillari xasta.
Qon yig'ladi bog'da gul, qirda chechaklar,
Qon yig'ladi nomus deb, qiz, kelinchaklar.
Qon yig'ladi qo'zi-qo'y taqir o'tloqda,
Qon yig'ladi: – Suv! Suv! – deb dehqon qirg'oqda.
Shunda chiqdi otilib ona To'maris,
– O'lim yovga! – dedi u. – Bukmaymiz hech tiz!
Bizni sahro burguti, lochini derlar,
Bizga aziz, muqaddas bu ona yerlar.
Dushman oti nag'alini tushmasin!
Bog'imizdan biror qush bevaqt uchmasin!
Uyat bizga – dushmanga bosh egib yashash!
Boqing, dushman mol-mulkni qilur xomtalash!
O'choqdagi olovim so'nmasin desang,
Ariqlarda suvlarim tinmasin desang,
Gullarimning shoxlari sinmasin desang,
Bola-chaqam qon yig'lab qolmasin desang,
Qo'llarimga yov zanjir solmasin desang,

Ona yurtim daxlsiz, muqaddas desang,
To'ldi sabr kosasi, yetar, bas desang,
Desang ona elimning aziz tuprog'i,
Desang bevaqt so'lmasin hatto yaprog'i,
Sariq xazon bo'lmasin yorim jamoli,
Qon hidiga to'lmasin bahor shamoli,
Bulut ichra tolmasin yorqin quyoshim,
O't ichida yonmasin qir, dala-toshim,
Bo'g'zimda qolmasin erk to'la kuyim,
Aylanmasin azaga bazmim va to'yim,
Oyoqosti bo'lmasin ajdodim go'ri,
Podam ichra oralab yurmasin bo'ri,
O'tirmasin yov chiqib uyim to'riga,
Suv sepmasin tandirda qolgan qo'rimga,
Bukilmasin ellikka yetmasdan belim,
Kesilmasin og'zimda bu biyron tilim,
O'yilmasin ko'zlarim, ko'rsin jahonni,
Qullik uchun tutmayman tanda bu jonni
Desang, xalqim, bosh ko'tar, tur, oyoqqa tur!
Dushman kelur bostirib, qarshisiga yur!
Omochni qo'y, qo'lingga qilich, yarog' ol!
Agar qilich topmasang, bolta, o'rog' ol!
Neki bo'lsa ol qo'lga, lekin qurol ol!
Xoh kattasan, xoh kichik, xoh er, xoh ayol!
Oyog'ingga etik kiy, belingni bog'la!
Ona tuproq tuzini, vaqt keldi, oqla!
Xoh otlisan, xoh yayov, anjoming tuzat!
Maydonga chiq, maydonga, mardliging ko'rsat!
"Xo'p bo'ladi!" – dedi el, turdi oyoqqa.
Hatto chollar tayanib hassa-tayoqqa!
Bitta mushtga aylandi yurt, ovul, qishloq,
To'lib ketdi lashkarga qir-u soy, toshloq!
Kiyim-boshi qurama, maqsad bittadir,

Bir og'izdan barchasi xitob etadir:
– Sensan yurtning onasi, onaliging qil!
Sening so'zing biz uchun amri vojib, bil!
O'zing boshla maydonga, boshla, To'maris!
Qolsin bizdan tarixda shonli porloq iz!
Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir,
Bosqinchi yov o'limga mahkum balodir.
O'zing boshla mardona, boshla, To'maris,
Yo o'lamiz, yo yurtni shonga ko'mamiz!
“Xo'p! Men rozi! – dedi u, – tinglang alqissa:
Mening uchun qonundir, elim ne desa!”
Boshlab ketdi lashkami, ostida tulpor,
Xalq ishonchi qalbiga yana kuch to'plar!
Qilich, qalqon yarashar mag'rur bastiga,
Uzun sochi olingan qalpoq ostiga.
Baland poshna etigi xipcha oyoqda,
Olov ko'zi der edi: dushman qayoqda?
Ishonch bilan lashkarni boshlab ketdi u,
Necha qir-u soylardan boshlab o'tdi u.
Jangga kirdi mardona, iftixor bilan,
Ishonch bilan, o'ch bilan, nomus-or bilan.
G'urur bilan, kuch bilan, matonat bilan,
G'azab bilan, zarb bilan, zo'r nafrat bilan...
Ming-minglab bosh sapchadek uzilib qoldi,
Ming-ming tana majolsiz cho'zilib qoldi.
Qonlar qonga qorishdi, o'lik o'likka,
Otlar jangga kirardi pishqirib tikka.
Duch kelganni kesadi o'rog'-u bolta,
Uzun qilar so'yillar qo'l bo'lsa kalta!
Mundoq boqsa Kayxusrav, qo'shin holi tang,
Xos askarin tushirib, o'zi qildi jang.
Amin edi mahorat, kuch, bardoshiga,
Mard To'maris ot qo'yib chiqdi qoshiga.

Qilichbozlik boshlandi yakkama-yakka,
Tashlanardi otlari arslondek tikka.
Qalqon to'sib qolardi qilich zarbini,
Ikki tomon garovga qo'ygan qalbini.
Qalbinimas, hayoti, erk, iqbolini,
Yurt nomusi, sharafi, istiqbolini!
Ming chirandi Kayxusrav, bo'lmadi biroq!
Qochib qoldi qo'shinin tashlab tumtaroq!
Quvib ketdi mardona yovqur To'maris,
Qorasini yo'qotmay borar izma-iz.
Shiddatida bor edi yigit viqori,
Yetib borib qilichin tutib yuqori
Yelkasiga tushirdi boshi aralash.
Deya: "o'zi bo'lurmi tinch elni talash!"
Otdan uchib Kayxusrav mukkalab ketdi,
Qora qonga belanib yoqasin tutdi.
Titrar edi maqtanchoq, chiranchoq qalbi,
Bir-biriga tegmasdi po'rsildoq labi.
Uchib ketgan qo'lidan tilla sop qilich,
Zarbof to'ni der edi: "Endi jondan kech!"
Shafqat tilab boqardi To'marisga u,
Tilin o'nglab ololmas hatto so'zga u.
Kalta qildi so'zini To'maris esa:
"Hukm shudir qahramon xalqim ne desa!"
Bir og'izdan xalq dedi: "Dushmanga o'lim!"
Xalq qalbida nafrati, qahri limmo-lim!
Shart uzildi murdorning boshi tanidan...
Bosh dumalab yotardi el oyog'ida,
Oltin sirg'a yiltillab so'l qulog'ida!
Mard To'maris so'z olib dedi: "Xaloyiq!
Yovga bergan zarbingiz maqtovga loyiq!
Do'stga bo'lgan mehrcha yovga qahringiz!
Endi butun ozoddir qishloq, shahringiz!"

So'ngra boqdi dumalab yotgan u boshga:
"Tiriklikda to'yovding sira qon-yoshga,
Mana endi to'yib ol, boshing ko'mib ich,
Bu gal senga kerakmas qalqon-u qilich!" –
Deya uzuq boshni u chuqurga otdi,
Chuqurdagi qonga bosh ko'milib botdi!

Xalq olqishlab qizini dedi: – Tashakkur!
Aqling – daryo, mehring – ko'l, har bir so'zing – dur!
El tinchidi, o'lkada ur-sur yo'qoldi,
Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi.
Tunda yomg'ir, sel kelib yuvdi uni ham!
Go'yo qayta boshidan poklandi olam!
Tutdi omoch qulog'in erksevar dehqon,
Mard To'maris dovrug'in el qildi doston.





SHE'RLAR

ORZULAR, FIKRLAR

Orzuning bo'lmaydi so'nggi nuqtasi,
Fikrning muntazam aniq qirg'og'i.
Tafakkur – orzuning chin omuxtasi,
Istiqbol mulkining nurli chirog'i.

Orzusiz yozmaydi fikrlar qanot,
Fikrsiz orzuning qo'l-oyog'i shol.
Ikkisi misoli egarlangan ot,
Uddalab minolsang, ufqlarga sol!

Hey, shirin orzular, teran fikrlar,
Qanchalar go'zalsiz, qanchalar ulkan!
Hamisha ufqlar sizni chaqirar,
Misoli dengizda ochilgan yelkan.

Esimni tanibman, men sizga shaydo,
Siz mening ulfatim, mulkim, xazinam,
Siz uchun umrlar bo'ladi fido,
Yoshlikday sevaman sizni hozir ham!!!



* * *

Ilhomning yo'llari uzundan-uzun...
Goh qoya ortidan keladi tolib.
Goh dengiz qa'riga tik urib o'zin,
To'fon-la chiqadi hayqiriq solib.

Ba'zida ko'klarda chaqmoqdek yelib,
Ufqdan ufqqa urar nurlı bosh.
Ba'zida mushukdek sudralib kelib,
Tizzangga qo'yadi boshini yuvosh.

Bu bori ilhomdir. Tizginsiz ilhom,
Gohida nomi bor, gohida benom.
Ba'zisi qog'ozga tushadi asta,
Ba'zisi yuradi hamon havasda!

O, o'jar, befursat, beqolip ilhom,
Baribir sen o'zing sharob to'la jom!



BOBONG YO'LI

Sen shu cholga salom ber, o'g'lon,
Shu chol sening bobongni ko'rgan.
Bobong bilan turib yonma-yon,
Qilich ushlab, janglarga kirgan.

Jangdan bobong qaytmadi, lekin
Dovrug'ini shu chol keltirgan.
Go'yo bobong qoldirgan yukin
Manziliga shu chol yetirgan!

Qo'lini ol, qo'lida bobong
Kaft issig'i saqlanib qolgan.
Qulog'ing tut, dilida bobong
Qalb urishin ardoqlab olgan!

Ko'ziga boq, ko'zida bobong
Aks suratin ko'rishing mumkin.
So'ziga boq, so'zida bobong
Ish sur'atin ko'rishing mumkin.

Yo'liga boq, yo'li beg'ubor,
Yo'li bobong tanlagan yo'ldir.
Sen shu yo'ldan adashmasdan bor,
Bu yo'llarda shon-sharaf mo'ldir!



ERKIN CHIROQ YOQDI

Chiroq zo'rmi, qorong'i?
Bu Erkinga qorong'i!
Yoqsa agar chiroq u,
Qochib ketar qorong'i.
Yo bekinib oladi,
Chet-chetlarda qoladi.
Chiroq yoqsa shu zamon.
Bosib kelar beomon.
Buncha chaqqon bo'larkan,
Buncha uchib kelarkan!
Yana yoqsa u chiroq,
Qochib ketar tumtaroq.
Demak, chiroq zo'r ekan,
Qorong'i-chi, ko'r ekan!

Erkin chiroq yoqadi,
Olamga nur oqadi!





ONAJONIM, ONAJON!

Erta turdim, yuzim yuvdim,
Toza yuvdim, onajon.
Uyquni men surib quvdim,
Rosa quvdim, onajon.

O‘rib qo‘ying endi sochim,
Mayda qilib, onajon.
Farqini ham to‘g‘ri oching,
Havas qilsin Guljahon!

Dasturxonni o‘zim yig‘ib,
O‘zim artib olaman.
Echkini ham o‘zim sog‘ib,
O‘zim yo‘lga solaman.

Uyni o‘zim supuraman
Hech erinmay, onajon.
Sut qaynasa, shopiraman,
Siz urinmang, onajon.

Faqat sochim mayda qilib
O‘rib qo‘ying, onajon.
Ishim qilay so‘ngra bilib,
Ko‘rib quvnang, onajon,

Onajonim, onajon,
Mehribonim, onajon!



BULUTNING ARMONI

Osmon to‘la bulut ko‘char
Karvon-karvon.
Bulutlarning bag‘ri to‘la
Armon-armon.
Armoni shu: quysam sharros
Dala-qirga.
Madad bo‘lsam quyosh kabi
Ona-Yerga.
Lola bo‘lib yaproq yozsam
Bahor chog‘i.
Meni emib xanda qilsa
Gul dudog‘i.
Mevalarning sharbatida
Nurdek kezsam,
Kanallarda to‘lib-toshib,
Yashnab suzsam.
Chashma bo‘lib yerdan chiqsam
Qaynab-toshib.
Tog‘dan tushsam chapak chalib,
Dovon oshib.
Qudratimdan har xonada
Yonsa chiroq.
Nurga to‘lib yashnab tursa
Yaqin-yiroq.
Tunda suvchi paxtazorda
Tarab yursa.

Mayli, ba'zan o'jarligim
Koyib tursa.
Mayli, inson izmida men
Mangu qolsam.
Mayli, uning ra'yi bilan
Nafas olsam!

Osmon to'la bulut ko'char
Karvon-karvon.
Yuragida ezgu niyat,
Nurli armon.
Niyatiga yetsin bulut,
Quysin sharros.
Yomg'irning ham hikmati zo'r,
Nurga qiyos!





QUSHLAR

Qushlar, qushlar, jon qushlar
Navbahorni olqishlar.
Sizni kutib maysalar,
Qorlar ostida qishlar.

Qorlar o'tdi, eridi,
Muddaomiz shu edi.
Dala-qirda, bog'larda
Gul-lolalarning hidi.

Uzoq eldan kelgan qush,
Kel, o'rtoqjon, bizga tush.
Har daraxtda uya bor,
Kutib turdi butun qish.

Yangi uya qurganman,
Sizni kutib turganman.
Sizni maqtab, olqishlab,
Qo'shiq aytib yurganman.

Siz kelganda o'tgan yil,
Ko'chat o'tqazdim besh xil,
Bu yil shoxiga qo'nib,
Denglar: nishonalar qil!

Qara, guli chiroylik,
Yur, u tomon boraylik.
Sen shoxida sayrab tur,
Bizlar dars tayyorlaylik.

Yetib kelar yoz oyi –
O'lkamizning chiroyi,
Sizga juda mos kelur
Uning ko'rkam har joyi.

Chaman-chaman bog'i bor,
Baland go'zal tog'i bor.
Siz o'ynoqi qushlar-chun,
Xo'p yarashar chog'i bor.

Uzoq eldan kelgan qush,
Kel, kel, bizning boqqa tush.
Yana ko'chat o'tqazdim,
Shoxlarida o'ynab uch!





SAYOHAT QIL, SAYOHAT

Yetib keldi kutilgan yoz,
Boq qandayin ko'rkam va soz.
Qushlar qilar ko'kda parvoz,
Sayohat qil, sayohat!

Dala-qirda oyna buloq,
Oqib yotar sharaq-sharaq.
Borib ko'rmak qanday maroq,
Sayohat qil, sayohat!

Meva pishdi, biram shirin,
O'rgan uning turi, sirin.
Yozib oling o'sgan yerin,
Sayohat qil, sayohat!

Yodgorlik ko'p shaharlarda,
Qolgan qadim mahallardan.
Bo'yog'i zar va hallardan,
Sayohat qil, sayohat!

Ulug' zavod bordir unda,
O'nlab moshin berar kunda.
Otang, akang ishlar shunda,
Sayohat qil, sayohat!

Tog'larimiz ma'danga boy,
Etagida oqar zo'r soy.
Sayil uchun juda bop joy,
Sayohat qil, sayohat!

O'tlar xilin ayt-chi, qani?
Kam muallim o'qitgani,
Havas qilsang ko'p bilgani,
Sayohat qil, sayohat!

Ey navqiron, nodir avlod!
Boy va go'zal ushbu hayot
Senikidir, bil, umrbod,
Sayohat qil, sayohat!





QUYOSH, O‘Z JOYINGGA CHIQ!

Quyosh ko‘lga tushib ketibdi,
Suv ostida yonadi porloq.
Hamma yoqni nuri tutibdi,
Ishonmasang ana, qarab boq!

Yoz ham o‘tdi – turibdi ana,
Kuz ham keldi – chiqolmas hamon.
To qishgacha qolsa-ya yana,
Sovuqda u qanday saqlar jon!

Quyosh! Quyosh! O‘z joyingga chiq,
Osmon yaxshi, osmon keng, ochiq.
Qishda suvlar sovuq bo‘ladi,
Qo‘l-oyog‘ing muzlab qoladi!





QALDIRG' OCH

Salom, senga, qaldirg' och.
Uzoq ellar mehmoni!
Seni ko'pdan kutadi
Yurtimizning bo'stoni.

Qir-u tog'lar oshdingmi
Manzilingga ko'z tikib?
Ketganmiding o'tgan yil
Mehrimgiz dilga tugib?

Salom olib keldingmi
Ulug' hindi yeridan.
Xizmatingga tashakkur,
Mehring dillar to'rida!

Hindi xalqi do'stimiz,
Aziz uning salomi.
Yaxshi niyatli xalqning
Tilda hamisha nomi.

Balki Gang qirg'og'idan
Uyanga loy olgansan.
Balki Kashmir bog'idan
Qalbingga kuy solgansan.

Sayra o'sha kuylarni
Bog'-u bo'stonlar kezib.
Daryolarni kesib o't,
Oppoq to'shing tegizib!

Ulug' yurtidan kelibsan
Bizda katta hurmating,
Kez! Hech kimsa demasin
Nega bizda turmading?

Qaytar chog'ing mehrimiz
Qanotingda olib ket.
Hind xalqi salomiga
Bizdan ko'p tashakkur et!





MEROS

*O'g'illarim Fikrat, Xondamir,
Bobur va qizim Zeboga*

Men seni o'stirdim silab-siypalab,
Yedirdim, ichirdim, toza kiydirdim.
Terlasang, manglaydan tering sidirdim,
Qoqilsang, turgizdim ko'nglingga qarab.

Taqdirdan shikoyat qilmadim senga,
Senga ham shu yo'lni maslahat berdim.
Adashsang, haq yo'lin ko'rsatib turdim,
Poklikdan nur quydim murg'ak ko'ksingga.

Shukurki, kamligim yo'qdir boshqadan,
Birovga tikmadim hasad ko'zini.
Ikkita qilmadim ustoz so'zini,
Do'stlarim safidan uzmadim qadam.

Sochlarim oqardi, yo'lim qisqardi,
Ba'zi bir tishlarim o'zimnikimas.
Do'stlar ham kamaydi, endi but emas,
Kiprikda, qoshimda yo'llarning gardi.

Goh dilim o'ynaydi, goh bosim baland,
Goh boshim aylanib, to'xtab qolaman.
Entikib-entikib nafas olaman,
Dahshatli o'ylarga fikrim bo'lib band.

Shunda ham o'limdan qo'rqmayman, o'g'lim,
O'limdan qo'rqmoqlik – nomardning ishi.
Rost aytsam, niyatim chala qolishi
Bag'rimni qiladi tilim va tilim!

Quloq sol, ey o'g'lim, vaqtiki yetib,
Men yorug' dunyodan ko'zimni yumsam,
Demakki, ijoddan to'xtasam, tinsam,
Uyma-uy izg'ima zo'r meros kutib.

Na bordir mol-mulkim, na mo'may pulim,
Do'stlarim yasaydi umrimga yakun.
Sen uchun merosim – pok umrim, lekin
Undan ham azizi – o'z ona tilim!!!





UMID

Men bilaman: u endi kelmas,
Men bilaman: u bo'lgan qurbon!
Men bilaman: kutmoq endi bas,
Men bilaman: qiynaladi jon.

Lekin kutmay ilojim ham yo'q,
Umid bilan umr yugurik.
Qalbim deydi: unga tengmas o'q,
Qalbim deydi: u odam tirik.

Ishonaman baribir hamon,
Kirib kelar salomat, omon.
Umid bilan tirikman o'zim,
Yo'llarida hamisha ko'zim.





YAXSHILIK

O'z umringda bitta yulduz yoq,
Bir yulduzki, nurli va porloq.
Hech bo'lmasa bitta chiroq yoq,
Qorong'ilik siljisin yiroq!

O'z umringda bitta ariq och,
Shoyad topsa bir nihol rivoj!
Hech bo'lmasa, ey baxti suluv,
Gullarga quy biron kosa suv!

O'z umringda bitta ko'chat ek,
Yashnab tursin kulgan baxtingdek.
O'z umringda och bitta qalam,
«Tinchlik» so'zin yozsin bu olam!..

...Gar yaxshilik kelmas qo'lingdan,
Yaxshi niyat qilgil dilingdan!





TOMCHIGA QULOQ SOL

Tomchiga quloq sol, nima deydi u,
U axir yangi bir havas-u tuyg'u,
U tarnov uchidan tomadi bir-bir,
Bahorning nafasi qilibdi ta'sir.

Bahorni yetaklab kelmoqda o'zi,
Nur bilan to'ladir ming bitta ko'zi.
Sen uning kuyiga quloq tut, quloq,
Qish ketib boradi, oyog'i cho'loq!

SHOGIRDGA

Men orzu qilgan-u yetolmay qolgan
Orzuning bog'ida men seni ko'rsam.
Yuz bora intilib o'tolmay qolgan
Eng baland cho'qqida men seni ko'rsam.
Men toshib aytolmay qolgan
So'zlarim tilingda tursa jaranglab...



IKKILIKLAR

Tun

Yulduz porlab yonsa deb zora,
Yuzlariga tortadi qora!

Oy

Oy – Quyoshning o‘gay farzandi,
Shu sababdan sovuq va bandi.

Umr yo‘li

Egri-bugri tortilgan chiziq,
Kim to‘g‘rilab oladi?! Qiziq!

Vahima

Arslon mag‘rur o‘kirgan chog‘i
Chalishadi otning oyog‘i.

Mehr

Muhabbatga doim zor ko‘ngil,
Kelishidan ketishi yengil.

Hasadgo‘y

Soyda o‘sgan achchiq bir alaf,
Mehribonlik qiladi talab.



SHAVKAT RAHMON



SHE'RLAR

OVOZIM

Nahot, she'rlar aytdim
bo'shliqqa qarab,
nahotki, sovrildi olov so'zlarim,
nahotki haq bo'lsa, el-u yurt asli,
quruq so'zlar degan gumroh do'stlarim?!
Nahot, bekor o'tdi
gulday umrimning
ming yilga tatirlik oltin choqlari,
nahot biror ruhni uyg'otolmadi
shoir yuragimning qaldiraqlari?!
Nahotki, birorta dilga yetolmay,
behuda sarflanib qancha kuch-chidam,
kelib ketaverar yorug' dunyoga,
kelib ketaverar menday kuychilar?!
Menga minbar emas,
unvonlar emas,
latta chechaklar-u
ehsonlar emas,
olov bir sahroni,
yurtim xayoli
nurga gurkiragan sahro bering, bas.
Erk-u muhabbatning muxtor elchisi –
yotmasman tuproqqa do'nib, tinchlanib,
jasadim tirikdir yorug' dunyoda,
oynig'iday chaqnar sinchlarim.
Agar yetti qavat yerning qa'rida

yotsam-da larzaga solib havoni,
elimning yuragin
topar baribir
jismimni kuydirib uchgan ovozim.

ORZU TASBEHI

Ajoyib kunlarning birida
uyg'onib ketaman uyqudan,
yurakning eng chuqur yerida
og'riqqa aylangan tuyg'udan.

Bir qo'shiq bo'laman daryoday
yurakning eng chuqur yerida,
boqaman dunyoga dunyoday
ajoyib kunlarning birida...





* * *

Endi jim turasiz,
sira iloj yo‘q –
dunyo o‘zgarmadi siz aytgan so‘zdan,
siz qurgan qasrlar vayrona bo‘ldi,
alafarga to‘ldi siz oqqan o‘zan.
Endi jim turasiz,
og‘ir, bilaman,
ammo har kimsaga taqdir nasibdir,
bilmoqchi bo‘lsangiz agar, shoirlik
jasorat so‘zining tarjimasidir.

Endi jim turasiz,
eshiting elni,
el aslo demaydi, zog‘lar kuylasin...
Endi kengliklarda haq so‘ramasdan,
yerni bezab yotgan bog‘lar kuylasin.
Kuylasin,
keldi-da kuylamoq gali,
kuylasin mangulik qo‘shiqclarini,
buzsin-da siz kabi aqli qisqalar
xatarsirab turgan to‘siqlarini.
Ana... quloq soling...
eshityapsizmi,
kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
shoir qorong‘ilik, shoir tog‘larda
shoir daryolarning shovillashi bor.

XIRGOYI

Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz,
qachon tiz cho'kuvdik,
hamon izzamiz,
sirqirab og'riydi shishgan tizzamiz,
o'rindan ozgina tursak maylimu?

O'tganlar bari bek,
qolgan javdirar,
gardinda ko'rinmas g'ullar shaldirar,
mehnatdan yorilgan qo'llar qaltirar,
o'z bekim yerida yursak maylimu?

Nasimlar gullamish ozod tog'larda,
ozodlik mujdasi so'l-u sog'larda,
bobolar qiynalib tikkan bog'larda
ag'anab bir xayol sursak maylimu?

Necha ming alloma, jo'mardlar o'lgan,
tafakkur sasigan,
ruhlari so'lgan,
urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda
o'z bekim davlatin qursak maylimu?

Yuz ellik yildirki mana shu holat,
hanuz davom etar makkor tijorat,
bilmadim, qayerdan ushbu jaholat,
nega siz bo'lmaysiz sira xijolat?
Nega men so'rayman sizdan ijozat?!

MUNOJOT

Faqat ishq...

Faqat ishq...

Boshqasi sarob,

boshqasi shamolning oniy suroni.

Qirqta tar gulimni ayladim xarob,
qirqta qul ko'zi-la ko'rdim dunyoni.

Qirqta qora qul yotar moziyda,
qirqta cherigini yo'qotgan bekman.

Abadiy ayrildim qirqta g'oziydan,
boshimni toshlarga ursammi deyman.

Bu dunyo nimadir?

Barini ko'rdim,

sulton-u gadoning qa'rini ko'rdim,

G'azzoliy sig'magan tuban olamda

shaytondan to'ralgan g'ayirni ko'rdim.

Faqat ishq...

Ishq guli...

Samoviy gulim...

bir nafas dilimga posibon bo'lsin,

tokim shul nafasda qirq birinchi qulning

yorug' lablarida xo'rsiniq so'lsin.

Tuhmat murdalari qalashib yotgan,

ig'volar qurtlagan sho'rlik diyorda

zamon-u makonin butkul yo'qotgan

bir ulug' faryodning

bolasi zorman.

Ay, qilichday tuyg'u,

ay, qotil tuyg'u,

bas, ortiq qiynama kimsasiz dashtda,

yuzimga yuzini qo'ysin o'shal gul,

dilimning qa'rini chavaqlab tashla!



IQROR

Rubobiy she'r yozsam...
qaytsam bir nafas...
hamisha musaffo chashmani ko'rsam,
qoraygan cho'qqilar qoriga qarab,
bir nafas xayolchan o'smirga do'nsam.
Voh, o'shal lahzalar...
o'tdimi butkul
gunafsha atirli tansiq tuyg'ular,
sahargi bog'larni uyg'otgan bulbul,
oylarning nurlarin elagan suvlar.
Yashil shajar edim...
Qandoq sog'indim...
ko'zimni yashnatsa rubobiy ranglar.
Qaysi bir dunyoga buncha og'rindim,
dilimni qaritdi besamar janglar.
Men jangchi emasdım,
men shoir edim,
nihoyat shoirdan ko'ra zobitman,
har nafas musulmon millatim dedim.
nafsiga kuyganlar keldi oqibat.
Haromni xush ko'rgan maslakfurushlar
zig'irday himmatin qilganda minnat,
yaproqday sarg'ordim buyuk urushda
musulmon yo'q edi,
yo'q edi millat.

Bas, qushlar sayroqi,
yaproqlari mo‘l
yashil shajar kabi turay mushakkal,
ilhomim haqida so‘ylasinlar xo‘b,
zaharli tilimdan to‘kilsin shakkar.
Rubobiy sabolar ruhimdan esing,
qaytadan uyg‘onsin ilohiy tug‘yon.
Voh, yalang shoxlarim qilichday keskir,
bir yaproq qolmaptir shivirlayturg‘on.

* * *

Chaqin bo‘lma,
bo‘lma guldirak,
yerdan ko‘pam uzoqlab ketma.
Ovozingni yirtmagin bekor,
yerni quchma – quloching yetmas.

Undan ko‘ra biror odamning
makoni bo‘l – irmoqli, soyli,
shamollarni to‘sgan tog‘i bo‘l,
osmoni bo‘l – yulduzli, oyli.

TURKIYLAR

Qilichin tashladi beklar nihoyat,
bosildi tulporlar,
tig'lar suroni,
urhoga o'rgangan tillarda oyat,
turkiylar tanidi komil Xudoni.
Qilichlar zangladi...
falokat hushyor,
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.
Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
komillik qidirgan jasur erlarga.
Ilvasin yigitlar,
bobir yigitlar,
sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.
Turkda bosh qolmadi... qolmadi dovlar.
xotin-xalaj qoldi motam ko'tarib,
«Bizga tik qarama!» – buyurdi yovlar,
yovlarga ters qarab yashadi bari.
Talandi samoviy tulpor uyuri,
talandi zarlari,
zeb-u zabari,
ters qarab o'ling deb yovlar buyurdi,
yovlarga ters qarab jon berdi bari.
Lahadga kirdilar o'zlarin qarg'ab,
qolmadi arabiy,
turkiy xatlari,
tug'ingiz dedi yov teskari qarab,
yovlarga ters qarab tug'ildi bari.
Tug'ildi,
tug'ildi,

tug'ildi qullar,
qirqida qirilgan – imdodga muhtoj,
yovlarga ters qarab itlarday hurar,
bir-biriga dushman,
bir-biridan koj.
Jo'mardlar qirilgan Turonzaminda
do'xaxiy tajriba pallasin ko'rdim:
eshshak suvrati bor qay bir qavmda,
qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.
Bu holdan buvaklar bo'g'ilib o'lar,
qul Bilol ezilib yig'lar falakda...
O'zlarin yondirar borliqdan to'ygan
Badaxshon la'liday asl malaklar.
Mo'minlar besh bora Allohni eslar
sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.
O'grilib sal ortga qarayin desa,
boshiga urarlar,
faqat boshiga.
Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
bormi bul tufroqda o'zligin izlab,
osmon-u falakka yetgan bolalar.

Bor bo'lsa,
alarga yetkarib qo'ying,
bir boshga bir o'lim demagan ermas,
shahidlar o'lmaydi,
bir qarab tuying:
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!



ESKI JANG MAYDONI

Zambaraklar muzeyda qoldi,
sarkardalar kirdi tarixga,
gavdalardan bo'shatib qonni,
askar kirdi zamin qa'riga.

Qalin maysa qopladi qadim
kunda kabi jang maydonini,
endi erkin qushlar behadik
terib yurar rizqi – donini.

Chumoli-yu qushlar, maysalar
buzgan mudhish chegaralarni,
shu abadiy toza maskanning
mangu g'olib,
chin egalari.





NODIRANING SHE'RI

Bolalarga

Katta shahar uyquda,
ko'rar rangin tushchalar.
Paydo bo'ldi saharda
yashil, sariq qushchalar.

Bo'g'otlarni talashib,
sayradilar galma-gal,
Katta shahar g'o'ldirab,
ko'zlarini ochdi sal.

Sayradilar tinimsiz.
mazax qilib g'urrakni.
Katta shahar miriqib,
varanglatar hurrakni.

Biron balo bo'lganmi
yo jonidan to'yanmi
yo kechagi bayramda
ko'proq ichib qo'yanmi?

Katta shahar haliyam
yotar edi so'ljayib.
Yetib keldi Quyoshvoy,
qarab turdi iljayib.

Axir, rangin qushchalar
sayramas hech behuda.
Katta shahar so'kinib,
bosh ko'tardi uyqudan.

Moshinlarin yurgizar,
qo'zg'aladi suronlar.
Yashil, sariq qushchalar
uchar Mag'rib tomonga.

Ular peshvoz borishar
qancha-qancha saharga.
Ko'p edi-da dunyoda
uxlayotgan shaharlar...





URUSH SUVRATI

Suv o‘rniga qon shimayotir
halovatsiz, bechora zamin.
Hasrat bilan yerga qaraydi
chiqarmasdan xudolar damin.

Qonga botgan dunyoni ko‘rib,
azoblarga berolmasdan dosh,
ulkan, qizil quyosh har kuni
olib ketar uzoqlarga bosh.

Ketayotir tubsiz moziyga
ko‘lankasiz yigitlar safi,
qizlar qolar kuz og‘ushida
unutilgan mevalar kabi.





RIVOYAT

Bir amaldor uzoq o'tirdi
xeshdan qolgan taxtiravonda.
Qolmagandi biror poya ham
taxtga tutash temir narvonda.

Xohlaganin qilar amaldor:
qor yog'dirar, yomg'ir yog'dirar.
O'zin buyuk qudrati bilan
ko'pchilikni esdan og'dirar.

Surib qo'yar vaqt kaftgirin,
kunduzlarni do'ndirar tunga,
pastda sho'rlik merovlar esa
sig'inardi xudoday unga.

Ammo kimdir anchadan buyon
chidab-chidab, oxiri to'ydi,
taxti-paxti bilan ko'tarib,
bir kun yerga tushirib qo'ydi.

Singigandi jismiga amal,
uni turli ko'yga soldilar.
Ul-bul joyin og'ritib, kesib,
amalini shilib oldilar.

Birdan sodir bo'ldi mo'jiza:
u aylandi mitti odamga,
tili chiqdi, «nanna» ham dedi,
hayratlanib boqdi olamga.

Gul o'ynadi, kapalak quvdi,
asta aqli to'la boshladi,
erkalatib qitiqlab qo'ydim,
sharaqlatib kulib tashladi.

Kelavering, do'stlar, yaqinroq,
yoqa ushlab, bo'lavermang lol,
endi barcha bolalar kabi
suysa bo'lar uni bemalol.





MINORAYI KALON

Ming yillar qa'ridan keladi,
kulfatga yo'liqib ming bora.
Tinimsiz toshbo'ron, qirg'inga,
xo'rlikka duch kelgan minora!

Necha bor to'plarga tutildi,
u judo bo'ldi bosh qismidan...
Va lekin jon qoldi sharqona
bezaklar bitilgan jismida.

Tasanno aytaman tuproqning
metindan kuchliroq doshiga.
Har yili in qurar laylaklar
minorning nuragan boshiga.

Bu yil ham minorda, xayriyat,
sharqona bezaklar so'nmapti,
Minorning boshiga bu yil ham,
xayriyat, qarg'alar qo'nmapti.



SULAYMON TOG' I ETAGIDA O'YLAGANLARIM

Diyonatli, orli ajdodlar
bu haybatli toshlar tagida
biror lahza xayol surmagan
soxta shuhrat, tama haqida...

Yasharkanlar yurtda sargardon,
kezarkanlar g'urbatda yoxud,
Sulaymon tog' poyida bir kun
ko'milmakni qilganlar orzu.
Bundan ne-ne alloma o'tgan,
ne jahongir, nechalab shoir,
biroq aziz tog' toshlariga
yozdirmagan hech biri nomin.
Sulaymon tog' yuksalib turar
bir elatning buyuk yodiday,
hayron bo'lib poyiga bugun
kelguvchilar e'tiqodidan.

Bugun kelar istagan kimsa,
berib tama ilinjiga zeb,
nomin yozar tog' toshlariga,
palonchilar kelib ketgan deb.
Kuzatarkan orsiz, vijdonsiz
kimsalardan to'ygan kunlarni,
bir hayajon,

titroqda tuydim
yer tagidan kelgan unlarni.
Sulaymontog‘,
muqaddas yodim,
ko‘rsam yurak-bag‘rimni dog‘lar,
betayinlar nomin ko‘tarib,
soat sayin o‘sar qoyalar.

YOSH TOG‘LAR

Kuch yog‘ilgan
gavdalarini
saratoning o‘tiga toblab,
ochib qo‘yib xazinalarin,
uxlab yotar o‘spirin tog‘lar.
Go‘yo mangu safarga chiqqan
yo‘lovchilar horgan ko‘yicha
o‘tirgan-u
birpas mizg‘igan
sirqiragan suvlar bo‘yida.
Bir nafasga ko‘z yumgandilar,
million yillar o‘tdi oradan,
uxlab yotar yurakni o‘rtab,
uxlab yotar
sodda bolalar...



TUNGI MANZARA

O'rmonlar jim, yig'lamas shamol,
soy sayramas, baqalar jimdir.
Ingroqlarga to'lib ketgan tun,
g'amgin qo'shiq aytadi kimdir.

Otim o'lgan, qilichim singan,
majaqlangan sovut, qalqonim,
Kim tashladi meni bu chohga,
qayda qoldi yorug' osmonim!

Qayerdaman, qayga borarman,
qora zindon naqadar chuqur,
faqat toqning burjidagi oy –
tuynukchadan tushar xira nur.

Barcha azob kamlik qilganday
soy sayramas, baqalar jimdir,
go'yo mazax qilganday goh-goh,
yopib turar tuynukni kimdir...



TONG OCHAR KO‘ZLARIN...

Tong ochar ko‘zlarin erinib,
sevinchdan yig‘laydi qiyoqlar,
chechaklar jilmayar sevinib,
shamolda cho‘milar giyohlar.

O‘ynoqi shu’lalar – bolalar
jimgina tarqalar sayhonga,
o‘rgimchak to‘qiydi tolalar,
xonqizi boradi mehmonga.

Qurbaqa varaqlar bayozin,
guldan bol so‘radi arilar,
chigirtka qayraydi ovozin,
parvozda ninachi – parilar.

Chumoli, mehnatkash chumoli,
kuyinma, atrofga bir qara –
maysalar, oh, qanday humoli¹,
dunyoni qilma ko‘p masxara.

¹ H u m o l i – jalb etuvchi, chiroyli.



OY SINIG'I

Oy sinig'i to'la suvloqqa
sharsharaday quyilar yollar.
Bu yollarni silar mehribon
shabadalar – ma'yus ayollar.

Ko'k yollarin suvga botirib
ne zamonki suv ichar otlar.
Atrofdagi ko'm-ko'k adirlar –
o'tovlarda botirlar yotar...

Biroq tunda o't-maysalarga
to'kiladir kimning yoshlari?
Nega suvdan bechora otlar
ko'tarolmas og'ir boshlarin?

Nima bo'lgan ularga axir,
yo sehrlab qo'yganmi suvloq?
Nega jimlik bosgan vohada
beg'am uxlar botirlar uzoq?



Jangda o'lgan emas biror bahodir,
bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
toshday uxlaganda to'shlarin ochib
yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.

Biror asotirda¹ bahodirlami
hattoki yuz boshli ajdar yemagan,
ming bir sinoatli yalmog'izlar ham
tog'larni o'ynagan devlar yengmagan.

Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,
bariga orqadan sanchilgan xanjar.
Shunday bo'lib kelgan azal-u azal
mana shu jafokash, ko'hna Vatanda.

Har gal bahodirlar yiqilar ekan
kurakka sanchilgan nomard tig'idan,
qayta tirilganday bo'lardi nogoh
har bir bolakayning qorachig'ida.

Ishongil, hech qachon seni aldamas
sofdil elatlarning asotirlari,
birorta bahodir o'lganmas jangda,
qo'rzoqlar o'ldirgan bahodirlarni.

¹A s o t i r – afsonalar, miflar.



O'GIT

Qo'rqqning ko'ziga tik qara doim,
biror so'z demasdan
uzoqroq qara,
titroq yetib borsin nigohlaringdan
yuzlab ajdodining jon-joni qadar.
Yetsin,
ajdodlari tirilsin qayta,
tirilsin, so'ng yana qaytadan o'lsin,
sening nigohingda ajdodlaringning
keskir nigohlari jamuljam bo'lsin.
Qo'rqq lozim bo'lsa qadaming bo'lar,
eng yaqin do'sting yo odaming bo'lar,
qo'rqqqa tik qara –
odamiyatga
bu sening eng zarur yordaming bo'lar.
Qo'rqq oylab, yillab,
hatto bir umr
ko'z-ko'zlab ming turlik suvratlarini,
eng nozik – eng ojiz joyingni ko'zlar,
ojiz joying esa kuraklaringdir.
Shu yorug' dunyoga bo'lib orzumand,
qoningdan baqirar qanchalab dohiy.
Qo'rqqqa ko'rsatma kuraklaringni,
ko'ziga tik qara,
tik qara doim.



QASIDA

Tutilgan oy, qadimgi
fanorsan, anor.

Yoqut tola qip-qizil
qanorsan, anor.

Goho qorol, gohida
pushtisan, anor.

Yerning qonga bo'yalgan
mushtisan, anor.





SHIMOL KUNI

Yechinadi milashlar yana,
tor yo'laklar yana sarg'arar.
Qovjiragan kuz tepasida
aylanadi qora qarg'alar.
To'lib ketdi qarg'aga osmon,
hatto arang ko'rinadi kun.
Qarg'alarmas,
go'yo qag'illab,
uchib yurar parchalangan tun.





MASHQ

Qorong'i bog',
xilvatda
o't-o'lanlar shovillar,
go'yo zulmat girvatida
yuzlashganday dovullar.
Qorong'ida yig'lar kim,
kim keladir yiroqdan?
Charaqlaydi yildirim
to'qnashganday pichoqlar.
Telbaday jim boraman,
yurakka qon sig'maydi,
shum dovullar qornida
ajinalar yig'laydi...
Go'yo zulmat bosganday
yangrar boyqush nidosi,
shamol o'ynar toshlarda,
bu – dunyo ibtidosi,
bu – dunyo intihosi.



QUMARU

Ko'kmak dala,
osmon qoraygan,
cho'kayotganday bulut karvoni.
Seskantirar jiydazorlardan
qochayotgan qushlar faryodi.
Yo'llar qadim...
tutlar qarigan...
suvlar simob kabi yaltirar.
Sukunatning teran qa'rida
uyg'onmoqda saslar qaltirab.
Asov ko'ngil...
ergashar andom,
qadim yo'ldan qayga yetaklar.
Qorong'ilik quyular qandoq,
qandoq titrar edi chechaklar.
O'sib borar qop-qora besha,
sovib borar yo'llar turpog'i.
Ko'ngil tashna,
Qondiray desam,
qaynab turar g'amlar bulog'i.



UMMON

Agarda bu ummon tagida
qudratli daryolar bo'lmasa,
tublari goh issiq, goh sovuq,
navqiron suvlarga to'lmasa,
bo'lmasa xilma-xil harakat,
bu qadar ummonlik qayoqda,
poyonsiz bir ko'lmak bo'lardi,
botqoqqa do'nardi,
botqoqqa.

XO'RSINIQ

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –
vodiylarga yugurdi shamol,
yuzlarini yashirdi hilol.

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir,
teran xobdan uyg'ondi yurak,
tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.



XAYOL

Dunyo...
dunyo...
ko‘p qadim dunyo...
na tubi bor, na chegarasi.
Somon yo‘li buzilgan ziyo –
sayyoraning tillo zarrasi.
Xayol o‘sgan yorug‘ lahzada
ehtiyot bo‘l fosiq dunyodan.
Yiqilmagin oniy larzadan
samolarga talpingan odam.
Ehtiyot bo‘l
nomard jo‘rangdan,
sinab ko‘rish uchun doshingni,
olmasin-da tag‘in mo‘ljalga
pistirmadan yorug‘ boshingni.





DARYO

Qo'yvormaydi ko'hna o'zanim,
kunduz yashar samarlarimda.
Sayraganday qumri, bulbullar
tovlanguvchi kamarlarimda.

Tog'lar tiniq qorini berar,
yashil vodiy – yoniq gullarin,
kechalarning bag'rini yoqdim,
mazaxladim sassiq ko'llarni.

Suv ichgani kelgan qo'ylarday
qirg'oqlarim to'ldirgan toshlar.
Majnuntollar mayda o'rilgan
kokillarin bag'rimga tashlar.

Tirik suvman – gajir, o'ynoqi,
kunlar uxlar quchoqlarimda,
bekor boqmas hamisha maftun
daraxtlar-u o't-giyohlar ham.



QASIDA

Tun dedim, yarashdi bu ism,
men seni bir so'zdan yaratdim.
Kiydirdim yarqiroq ko'ylakni,
husningga olamni qaratdim.

Sen marol ko'zidan chiroyli,
ohanglar taralar ismingdan,
sen go'zal tonglarni tug'asan,
nastarin bo'ylari jismingda.

Oylarni joyladim bag'ringga,
sen barcha tunlarning yoshisan,
so'ng o'zim yiqildim hayratdan,
milyonta suluvning sochisan.

Qadadim qop-qora ko'ksingga
cho'g' kabi qip-qizil g'unchalar.
Agar men bo'lmasam, eshit, tun,
chiroyli bo'lmasding bunchalar.



MUHABBAT

Muhabbat – chiroyli kapalak,
qo‘rqaman sho‘rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yonimda,
yodimda yo‘q ammo yetganim.

Yuragim ranjigan boladay
na ermak, taskinga ko‘nadi.
Muhabbat – chiroyli kapalak,
hali ham gullarga qo‘nadi.

Ortidan halloslab chopaman,
xijolat bo‘laman g‘o‘rlikdan –
qanchalik yugurmay, baribir
orqada qolardim sho‘rlikdan.





ESDALIK

Unutganim yo'qdir hali
o'rikzorni, asov soyni,
soy bo'yida ko'zdan xoli
baqaterak o'sgan joyni.

Unutganim yo'qdir hali
o'yinqaroq zilol suvni,
tol tagida shom mahali
g'ira-shira ikki quvni .

Yodimdadir o'shal damlar,
kulgularing edi so'lim,
hali yiroq edi g'amlar,
dunyoda yo'q edi o'lim.

Qovjiradim yoz guliday
sog'ingancha o'shal joyni,
xoli kecha, yetim hulvo,
yarqiragan ulkan oyni...





MANZARA

Xiralashar zirvalar qori,
so‘lar ulkan loladay oftob,
bitta o‘zim maysa yoyilgan
tepalikda o‘qirdim kitob.

Kabutarlar uchganday bo‘ldi,
shundoqqina yonimdan sarin
shabbodaday o‘tardi o‘ynab,
shohi ko‘ylak kiygan nastarin...

Sochi qumrol, dudog‘i lola,
yuzlari oq, yonoqlari ol,
o‘ynab harir etaklarini,
quchoqlardi bolakay shamol.

Qoraygandi zirvalar qori,
allaqachon so‘lgandi oftob,
bolashamol endi muk tushib,
tepalikda o‘qirdi kitob.



SAVDOGAR VA TO'TIQUSH

Qushlarni suyardi savdogar azal,
shundan topar edi ko'ngil xushini.
Hamma qushlaridan ko'rardi afzal
odamday gapirgan to'tiqushini.
Yana bir ermagi tijorat edi,
tevalar qo'zg'olib qoldi bir nahor.
Savdogar qafasband to'tiga dedi:
«Hind sori borurman,
ne tilaging bor?»
«Ey saxovatli zot,
ko'nglim xo'b chog'dir,
birinchi tilagim – sog'-salomat qayt,
ikkinchi tilagim – palon bog'dagi
to'tilar qavmiga mendan salom ayt».

Yil o'tdi.
Safardan qaytar mahalda
karvon to'ti aytgan makondan o'tdi.
Bir kavsar edi-da,
tovlanib la'lday
shoxlarda tizilmish minglagan to'ti.
Xushfe'llik hamisha kerakli xislat;
avval salom aytdi,
andin so'ng kalom:
«Turon bog'larindan bir to'ti sizga
kamina orqali yo'lladi salom».

Havo to'liqlandi cheksiz ohlardan,
nogoh g'uj og'ochlar to'lg'ondi og'ir –
to'tilar to'kildi zumrad shoxlardan,
rangin shu'lalarday
to'kildi bir-bir.

Bu holdan qo'zg'alib qoldi tevalar.
savdogar qayg'urib-qayg'urib qaytar.
Bu yomon xabarni
sho'rlik bevatan –
yo'l qarab o'ltirgan to'tiga aytar.
Ey voh,
bu qandayin ko'rgilik bo'ldi,
savdogar hayratda –
o'ngimi yo tush –
bu yomon xabardan to'tiqush o'ldi,
o'ldi saroyini bezab turgan qush.
Savdogar bo'zladi,
bo'zladi yomon,
ko'nglini bezagan qushni yo'qotdi.
Qafasning eshigin ochgani zamon
o'lgan qush o'zini osmonga otdi.
«Ey saxovatli zot,
kechirgil meni,
qushlarning tilini faqat qush bilgay.
Ularning bir sirin ochayin endi –
biri bandi bo'lsa, bari yiqilgay...»

...Shu-shu uzlat qilib,
haqqa yetganday,
haliyam ko'ngliga sig'may hatto zar,
ushbu voqeani o'tgan-ketganga
gapirib yurarmish xushfe'l savdogar.



HANGOMA

Yoz kuni...
katta yo'l...
Go'zal alanglar
go'yoki nimadir yetmayotganday.
Quyosh imillaydi,
go'zalni ko'rib,
go'yoki atayin ketmayotganday.
Go'zal orolanar,
lablarin bo'yar,
qiyiq ko'zlariga suradi surma.
Chakkada bir dasta sadarayhoni,
tirmog'i bo'yalgan qo'lida jurnal.
Munchalar ko'rkamdir supermoshinlar:
oq, qizil, ko'k, sariq, jigarrang, moviy...
Qilichday yigitlar bir zumga to'xtar,
go'zalga tikilib juda ijobiy...
Oq mashina to'xtar: «Oyimqiz, ketdik».
Oyimqiz bo'yalgan lablarin burar.
Yashili to'xtaydi: «Oppoq qiz, e hayy».
Oppoq qiz qaramas –
go'yo o'y surar.
Yarqirab to'xtaydi qizili, mana:
«Gaplashib ketaylik, e mayli, attang».
Tovlanib to'xtaydi moviy ranglisi:
«Muncha chiroylisan, joningdan akang».
Bariga noz-firoq,

karashma qilar,
go'yo mana, hozir yo'laydiganday.
Barini kuydirib, mazaxlab qolar,
go'yo bir shahzoda keladiganday.
Quyosh ketib qoldi zerikkanidan,
bunday lanj tomosha yoqmadi chog'i.
O'tar kulrang, nosrang, qora moshinlar,
ko'rinay demasdi ammo zo'rrog'i.
Endi nur o'ynamas sho'x ko'zlarida,
birpasda olam ham qoldi torayib.
Oy chiqqan mahali
silkinib, tutab,
bir balo ko'rindi ko'zga qorayib.
Go'zal qo'l ko'tarar o'zidan o'zi,
oldingi o'ringa o'tirar shoshib.
Haydovchi keksaydi,
tag'in ko'saydi,
kal ham garang edi, sharpaydi ojiz.
Na iloj,
ketish ham kerak edi-da,
lablari so'ligan: yuzida – surma,
o'yida oq, sariq, ko'k, qizil, moviy,
xinoli qo'lida ezilgan jurnal...



* * *

Ko'p yig'lama,
og'riydi boshing,
axir baxtli bo'lmog'imiz shart.
Yomon bo'lar agar ko'zyoshing
tugab qolsa, kelgunicha Baxt.

Ko'zyoshingni sochma tunlarga.
asrab qo'ygin yaxshi kunlarga.

* * *

Kel, yashirib qo'yayin seni
yurakning eng chuqur yeriga.
Keyin sen ham yashirgin meni
yurakning eng chuqur yeriga.

Topolmasin bizlarni birov!

* * *

Dunyo hali noraso, hali
o'rtamizda chopar ayriliq,
chaqiramiz bir-birimizni,
og'zimizni yopar ayriliq.
Nafrat yashar dunyoda, hali
yozilganday qaysi kitobda
Muhabbatning asrini kutib,
o'tiribmiz ikki qutbda...



BAXT SO‘ZI

Baxtiyorman degan birgina so‘zni
aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,
garchi baxt so‘zlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki tilning uchida.
Og‘ir botmasmikin
bu so‘z kimgadir,
tegib ketmasmikin oh-vohlariga,
qandoq bardosh berib yashayman keyin
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.
Avvalo bu so‘zni o‘zgaralar aytsin,
aytsinlar ko‘zlari sevinchga to‘lib,
elning baxti uchun umrini tikkan
shoirlar aytmasin birinchi bo‘lib.
Bu so‘zni bir umr aytmay yashadim,
har shodlik kelganda yurdim sekinroq.
G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim,
baxt so‘zin aytaman,
eldan keyinroq.

MUNDARIJA

Turdi Farog'iy

G'azallar.....	4
Muxammaslar.....	11

Uvaysiy

G'azallar.....	20
Muxammaslar.....	36
Musaddas.....	42
Tarji'band.....	44
Chistonlar.....	46

Zavqiy

G'azallar.....	48
Muxammaslar.....	51
Murabba.....	58
“Hajvi ahli rasta”.....	60

Maxtumdqli

G'azallar.....	66
She'rlar.....	70
Hajviyot.....	93

Abdulla Avloniy

She'rlar.....	99
Qit'alar.....	110

Shuhrat

Ballada.....	112
She'rlar.....	118
Ikkiliklar.....	137

Shavkat Rahmon

She'rlar.....	139
---------------	-----

Adabiy-badiiy nashr

ADABIYOT XRESTOMATIYASI

Turdi Farog'iy

Uvaysiy

Zavqiy

Maxtumquli

Abdulla Avloniy

Shuhrat

Shavkat Rahmon

22 jild

G'oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*

Muharrir *O'tkir Yo'ldoshev*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*

Musahhah *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 290. 04.11.2016 y

Bosishga 2018-yil 21-sentyabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$ Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 9,45 shartli bosma toboq. 5,54 nashr tobog'i.

Adadi 3000 nusxa. 469 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz

KITOB - AQL CHIROG'I!

G'AFUR G'ULOM

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Siz aziz o'quvchilar uchun **44** ta kitobdan iborat

ADABIYOT

XRESTOMATIYASI

seriyasini taqdim etadi.

Endi Siz ushbu seriya ostida nashr etilgan kitoblar orqali 5-9-sinf darsliklariga kiritilgan barcha adiblarning asarlarini to'liq shaklda o'qishingiz mumkin.



ISBN 978-9943-5209-3-6



9 789943 520936